

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv.vatanparvar.uz

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 18-aprel
№16 (3130)



Menga
yering suyuk,
Osmoning suyuk.
Boqsam, teng
To'rttala
Tomoning suyuk.
Tovonimga kirgan
Tikoning suyuk –
Kaftdan
Zirapchang ham
Yulmay sevaman!

M. YUSUF

MILLIY G'URUR

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz



vatanparvar-bt@mail.uz



facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya



Xalqaro hamkorlik

SAMARQAND SAMMITI G'YOYALARI



Dilshod ARZIQULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti
professori, psixologiya
fanlari doktori

Sharq gavhari hisoblanmish Samarqand shahrida o'tkazilgan "Markazi Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti asosiy yo'nalishlarida hamkorlikni kuchaytirish masalalari muhokama qilindi. Mazkur tarixiy uchrashuvda Yevropa kengashi prezidenti Antoniu Koshta, Yevropa komissiyasi prezidenti Ursula fon der Lyayen va Markazi Osiyo davlatlari – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston rahbarlari ishtirok etdi.

Sammitda Yevropa Ittifoqi va Markazi Osiyo o'rtasidagi savdo hajmi 54 milliard yevroga yetgani ta'kidlandi. Transkaspiy transport yo'lagi orqali aloqalarni mustahkamlash va raqamli infratuzilmani rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Qolaversa, Markazi Osiyoda toza energiya manbalarini rivojlantirish va suv resurslarini boshqarish bo'yicha hamkorlik qilish rejalashtirildi.

Yevropa Ittifoqi Markazi Osiyodagi muhim xomashyolarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida hamkorlikni kuchaytirishni rejalashtirdi. Ya'ni strategik jihatdan muhim, lekin iqtisodiy jihatdan kamyob bo'lgan, muayyan sohalar uchun zarur bo'lgan xomashyolar bo'yicha savdo-sotiqni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Yevropa komissiyasi prezidenti Ursula fon der Lyayen ma'rzasida **Markazi Osiyo uchun 12 milliard yevrolilik investitsiya paketini e'lon qildi**. Ushbu mablag'lar transport infratuzilmasi, muhim xomashyolar, energiya uzatish va raqamlashtirish kabi sohalarga yo'naltiriladi. Shuningdek, sammitda inson huquqlari va demokratik qadriyatlar ham muhokama qilindi. Huquqni himoya qilish organlari xodimlariga Yevropa Ittifoqini Markazi Osiyodagi inson huquqlari masalalariga e'tibor qaratishga

chaqirdilar. Umuman olganda, ushbu sammit Yevropa Ittifoqi va Markazi Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Mazkur tadbirda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan bir nechta muhim yo'nalish va jabhalarga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, tinchlik va xavfsizlik masalalari bo'yicha Markazi Osiyoda barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash muhimligi ta'kidlandi. Afg'onistondagi vaziyat mintaqaviy xavfsizlik bilan bog'liq ekani, unga bee'tibor bo'lmaslik kerakligi aytildi. Iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha Yevropa Ittifoqi bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish taklif qilindi. Infratuzilma va logistika, jumladan Transkaspiy xalqaro transport yo'lagiga e'tibor qaratildi. Xususan, yoshlar bilan ishlash, ta'lif sohasidagi hamkorlik va kadrlar tayyorlash muhimligi alohida qayd etildi. Yevropaning ilg'or tajribasini o'rganish va tatbiq etishga e'tibor qaratildi. Qurg'oqchilik va suv tanqisligiga qarshi kurashishda qo'shma chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etildi. Orol dengizi muammosi butun mintaqaga uchun muhim ekani va xalqaro yordam zarurligi ta'kidlandi.

Anjumanda Yevropa Ittifoqi bilan siyosiy muloqotni yanada chuqurlashtirish, umumiy

yondashuvlar asosida hamkorlikni kuchaytirish lozimligi aytildi.

INSON HUQUQLARI, qonun ustuvorligi va boshqaruvi sifatini oshirish bo'yicha tajriba almashish masalalari ko'tarildi. "Markazi Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammitida juda muhim geosiyosiy voqeя bo'lib, nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro hamkorlikda yangi bosqichni belgiladi. Mazkur sammitdan ko'zlangan maqsad vazifalar va kutilayotgan natijalar qanday bo'ladi yoki mazkur sammitdan Markazi Osiyo davlatlari bilan Yevropa Ittifoqining asosiy maqsadi nima, degan savol tug'ilishi tabiiy. **Birinchidan**, Markazi Osiyo davlatlari bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi munosabatlar institutsional darajaga olib chiqiladi. **Ikkinchidan**, strategik muloqotni mustahkamlash, barqaror taraqqiyot, xavfsizlik, savdo va transport sohalarida hamkorlik chuqurlashadi. **Uchinchidan**, Yevropa Ittifoqining mintaqaga bo'lgan siyosiy va iqtisodiy e'tibori oshadi.

Yevropa Ittifoqi Markazi Osiyoning eng yirik savdo hamkorlaridan biri. Sammitda savdo hajmini oshirish, logistika yo'nalishlarini rivojlantirish, investitsiyalarni jaib etish kabi masalalar muhokama qilindi. Transport va logistika masalasida "Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi"ni rivojlantirish orqali Yevropa va Osiyonni bog'lovchi alternativ yo'nalishni mustahkamlashga e'tibor qaratildi. Energetika va "yashil" iqtisodiyot yuzasidan quyosh va shamol energiyasi, gidroenergetika sohasidagi loyihalarni amalga oshirish, iqlim o'zgarishiga qarshi qo'shma choralar, Orol dengizi fofiasi kabi mintaqaviy ekologik

muammolarga yechim topish masalalari muhokamalar markazida bo'ldi.

Inson kapitalini rivojlantirishga oid ta'lim, ilm-fan, yoshlar siyosati, kadrlar tayyorlash sohasida YeI tajribasidan foydalanish, xavfsizlik va barqarorlikka doir Afg'onistondagi vaziyat, terrorizm va transmilliy xavf-xatarlarga qarshi hamkorlik qilish mavzulari ham e'tibordan chetda qolmadи. **Mazkur sammit natijasida Yevropa Ittifoqi va Markazi Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlar yangi strategik bosqichga ko'tarildi.** Shuningdek, mintaqada iqtisodiy o'sishga turki beradigan yangi infratuzilma loyihalari amalga oshirilishi, "yashil" iqtisodiyot va ekologik muvozanatni ta'minlash sohasida xalqaro loyihalar ishga tushirilishiga ta'lim va kadrlar sohasida Yevropa bilan aloqalar kuchayib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda mintaqada xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etilishiga xizmat qiladi.

USHBU SAMMITNING O'ZBEKISTON UCHUN

AHAMİYATI: Yevropa Ittifoqi bilan to'g'ridan to'g'ri strategik muloqot imkoniyati oshadi va savdo-iqtisodiy sohada yangi bozorlar ochiladi hamda energetika va ekologik loyihalarda Yevropa bilan hamkorlik kengayadi, ta'lif va texnologiyalar sohasida loyihalar jaib etiladi. Markazi Osiyo uchun esa mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish orqali mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishga yangi imkoniyatlar yaratilishi hamda tashqi siyosatda muvozanatli va ko'p tomonlama hamkorlikni shakllantirishga keng imkoniyatlar ochib berishi bilan ahamiyatlari.

Vazir va yoshlar uchrashuvi

BIR UMRGA YETADIGAN INTIZOM

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUDOFAA VAZIRI GENERAL-MAYOR SHUXRAT XALMUXAMEDOV SHIMOLI-G'ARBIY HARBIY OKRUGGA QARASHLI NUKUS GARNIZONIDAGI HARBIY QISMLARGA MUDDATLI HARBIY XIZMATNI O'TASH UCHUN KELGAN YIGITLAR BILAN SUHBATLASHDI.



"Yangi O'zbekiston armiyasi mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!" shiori ostida o'tgan "Vazir va yoshlar uchrashuvi"da Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, siyosiy fanlar doktori Otabek Hasanov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi Farhod Ermanov qatnashdi.

Vatanni himoya qilishni maqsad qilgan elimizning zabardast o'g'lonlari uchun bunday uchrashuv kelgusi hayotga katta motivatsiya berib, yuksak marralarni zabit etishga undaydi.

Nukus garnizoni ma'naviyat va ma'rifat markazining tantanalar zalida samimiy suhabat tarzida o'tgan uchrashuvda mudofaa vaziri ma'nani va jismonan kamolga yetgan yoshlarga kelajagi uchun kerak bo'ldigan pand-u nasihatlar berib, Vatan himoyachisi bo'lishdek mas'uliyatli vazifa hammaga ham nasib etavermasligini ta'kidladi. Bugun Qurolli Kuchlarimiz saflarini to'ldirgan mana shunday zabardast yigitlar bilan birga xizmat qilayotganidan g'ururlanishini e'tirof etdi.

"Armiya saflari bu, bиринчи navbatda, har bir yigitni hayotga tayyorlaydigan, tarbiyalaydigan katta maktabdir. Muiddatli harbiy xizmatni o'tagan har bir yigit hayot maktabini o'taydi. Shu bois hayotda uchrashuvda mashaqqatlarni yengib o'tishda ularda kuchli iroda, matonat shakllangan bo'ladi", dedi vazir.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida so'nggi yillarda olib

borilgan islohotlar armiyaning qiyofasini butkul yangilab, harbiy xizmat nufuzini oshirib, yurt himoyachilari va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasiga bo'lgan e'tibor ko'lami kengaygani tadbir davomida qayd etildi.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab mamlakatimiz Mudofaa vazirligi qo'shinlarida yangi davr boshlandi. Olib borilgan tub islohotlar boshqaruva tizimidan boshlab jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarliklar, bo'linmalarning tashkiliy-shtat tuzilmasi butkul yangilandi. Qo'shinlarni zamonaviy quroq-aslahada va harbiy texnikalar bilan butlash ishlari jadal olib borilishi natijasida bugun Qurolli Kuchlarning jangovar qudrati sezilarli darajada oshirilishiga erishildi. Bugun milliy armiyamiz zamonaviy xavf va tahdidlarga javob bera oladigan, asosiysi, mamlakatimiz hududiy daxlsizligi, uning xavfsizligi va xalqimizni tinch hayot bilan ta'minlaydigan katta kuchga aylanganini ta'kidlash joiz", deya e'tirof etdi general-major Shuxrat Xalmuxamedov.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Otabek Hasanov har birimiz tomirimizda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Boburdekkajdolarning muqaddas qoni oqib turganini, shunday buyuk insonlarning jasorati va matonati biz uchun o'rnat sifatida qadrlanishi kerakligini uqtirdi.

"Men kadrlar organida faoliyat yuritganimda bir yillik harbiy

xizmatdan so'ng oliygochlarda o'qib, davlat idoralarida ishlaydigan yurtoshlarimizning kasbiy o'sishi armiyaga bormaganlarga nisbatan ikki barobar baland bo'lishini sezdim. Buning sababini bilish uchun mutaxassislar murojaat qildim. Ulardan "Bir yillik armiya bir umrga yetadigan tartib-intizomni o'rgatadi", degan javobni oldim. Zero armiyaga borgan yigit kelgusi mashaqqatlar oldida hech qachon nolimaydi, chunki irodali, oq-qorani tanigan, qiyinchiliklarni ko'rgan-da. Shuning uchun ham armiyaga borganlarga jamiyatimizda ham, yuqori rahbariyat tomonidan ham boshqacha nazar bilan qaraladi", dedi o'z nutqida Otabek Hasanov.

Erkin ruhda o'tgan uchrashuv davomida muiddatli harbiy xizmatchilar mudofaa vaziri va mehmonlarga murojaat qilib, o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar oldi. Yigitlar bugun yurtimizning eng sara o'g'lonlari qatorida xizmat qilayotganidan qalblari g'urur va iftixon tuyg'ulariga to'lib-toshayotganini e'tirof etdi.

Uchrashuv davomida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda Amir Temur bobomizning qiyofasi sun'iy intellekt yordamida yaratilgan videorolikning ilk premyerasi namoyish etildi.

Hayot maktabida toblanish uchun kelgan yoshlar bilan mudofaa vazirining suhabati samimiy ruhda, erkin muloqot va yuqori kayfiyatda o'tdi. Harbiy hayot yo'li boy tajribadan iborat bo'lgan vazirning nutqi ibrat maktabini o'tagan yoshlar uchun kelajakda komil inson bo'lib,

mamlakatimiz taraqqiyotiga o'z ulushini qo'shishga chorladi. Kasb-hunar o'rganishga, qaysi sohada bo'lmasin, o'z ishining mohir ustasi darajasigacha ko'tarilishga ruhlantirdi. Yurtimiz obodligi, kelajagi uchun mas'uliyat bilan yondashishga, buguni va ertasi uchun jonkuyar, fidoyi bo'lishga undadi. Xalq va davlat manfaatlari yo'lida g'ayrat qilishga, o'qib izlanishlariga, taraqqiyotimizga hissa qo'shishlariga, yuksak marralarni zabit etishlariga ishonch bildirildi. Bugun Yangi O'zbekistonni barpo etayotgan mehnatkash xalqimiz, Prezidentimizga yelkadosh bo'lish, mamlakatimiz farovonligi yo'lida xizmat qilish eng oliy sharaf ekani ta'kidlandi. Qasamyodiga sodiq qolish, doim yurt taqdiri uchun yonib yashash kerakligi uqtirildi.

Suhbat asnosida muiddatli harbiy xizmatchilar o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirish, ularda mutolaa madaniyatini yuksaltirish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan harbiy qismiga intellektual salohiyatni oshiradigan 100 ta kitob taqdim etilishi hamda har yili askarlar o'rtasida kitobxonlik tanlovi o'tkazilishi haqidagi xabar muiddatli harbiy xizmatchilarni quvontirdi.

**Podpolkovnik
Timur NARZIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig'i**

O'quv-uslubiy yig'in



Komandir – u boshqaruv ko'nikmasiga ega, qo'l ostidagilarining jismoniy va aqliy salohiyatini oshirish, doimo jangovar shay holda bo'lishini ta'minlashi zarur. Chunki zamon shuni talab qilyapti. Demak, yetakchi professional bo'lishi kerak. Ana shunda bo'ysunuvchilari ham unga ergashadi va ishonadi. Berilgan vazifalar tezkor va bekam-u ko'st bajariladi.

Toshkent harbiy okrugidagi "Chirchiq" dala-o'quv maydonida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xizmat qilib kelayotgan jangovar tayyorgarlikka mas'ul ofitserlar va ularning o'rnbosarlarasi ishtirokida o'tkazilgan o'quv-uslubiy yig'inda ham ushuu fikrlar alohida ta'kidlandi.

Bir necha kun davom etgan mazkur yig'in nazariy va amaliy tarzda olib borildi. Har bir jarayon ishtirokchilar uchun muhim ahamiyat kash etdi. Zamonaviy bilimlar chuqur tahlil etildi. Mintaqaga jahonda yuz berayotgan harbiy-siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish zarurligi misollarda keltirib o'tildi.

Yig'inda mudofaa vaziri general-major Shuxrat Xalmuxamedov ham qatnashib, so'nggi yillarda davlatimiz rahbari, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan barcha sohalar singari milliy armiyamizning

jangovar qudratini yanada oshirish, saflardagi harbiy xizmatchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratib kelinayotganini e'tirof etdi.

– Yig'inning ahamiyatli jihatni komandirlar va ularning o'rnbosarlariga jangovar tayyorgarlik borasida faqat nazariy ma'lumotlar berib qolinmay, o'quv savollari amaliy tarzda ham ko'rsatildi va muhokama qilindi, – deydi podpolkovnik Ortijon Atayarov.

– Shuningdek, o'quv-uslubiy yig'in davomida uzoq masofaga marsh yurish, mudofaa va hujumda to'qnashuv jangi yuzaga kelganda guruhning vazifalari birlgilikda ko'rib chiqildi. Qolaversa, komandirlarning bunday vaziyatlarda bo'linmani boshqarishi va o't ochish manyovrлari-yu bo'linmalar bilan hamkorlikda harakatlanish kabi jihatlar ham amaliy tarzda namoyish etildi. Aytish kerakki, jangovar tayyorgarlikda

YETAKCHI PROFESSIONAL





BO'LISHI KERAK



turli zamonaviy qurollardan oqilona foydalanish orqali belgilangan nishonlar o'ta aniqlikda yakson etiladi. Yig'in davomida ham ayni jihatlarga alohida e'tibor qaratildi.

Taktik tayyorgarlik, qo'shinlarni mohirona boshqarishda komandirlarning salohiyati, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy sifatlarini mustahkamlash, qurolli to'qnashuvlarning qiyosiy tahlili, shuningdek jang olib borishning zamonaviy usullarini o'rganish va eng maqbullarini qo'shinlarda joriy etish... bular keng qamrovli o'quv-uslubiy yig'indan ko'zlangan asosiy maqsadlardan etib belgilab olindi.

– Shaxsiy tarkibning jangovar shayligi, qo'yilgan topshiriqni qay darajada uddalay olishi... albatta, bu jangovar tayyorgarlikka mas'ul vakillarning nechog'li o'z kasbining ustasi ekaniga, bilimli va vaziyatni to'g'ri baholay olish qobiliyatiga bog'liq. – deydi podpolkovnik Oybek Qosimov. – Shu sabab ham uslubiy yig'inda ishtirokchilarning qo'l ostidagi bo'ysunuvchilar bilan amaliy mashg'ulotlarni bugungi kun talablariga mos tarzda tashkil etish, quroslaslahalar-u harbiy texnikalardan foydalanish kabi masalalarni o'zida jamlagan o'quv savollari yetakchi mutaxassislar bilan birgalikda ko'rib chiqildi.

O'quv-uslubiy yig'in ishtirokchilari qo'shinlarda shaxsiy tarkib bilan o'quv yili davomida jangovar tayyorgarlikni tashkillashtirishning barcha yo'naliishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini yanada oshirdi, yangi yondashuv va uslublarni o'rgandi.

Belgilangan topshiriqni bajarish uchun harbiy xizmatchilarga puxta bilim-u iroda va mahorat kerak. Boshqa o'quv joyida zirhlis jangovar texnikalarni boshqarish, ekipaj a'zolarining vazifalarni bajarishi borasidagi harakatlari ham ko'rgazmali tarzda namoyish etildi.

Yig'in rejasidan joy olgan o'quvlar nafaqat kunduzgi sharoitlarda, balki tungi, ko'rish imkoniyati cheklangan vaziyatlarda ham olib borildi.

Qisqasi, qo'shinlar istalgan daqiqada o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi kerak. Buning uchun har bir harbiy xizmatchi jangovar tayyorgarlik bo'yicha mutnazam shug'ullanishi, o'z yo'naliishidan kelib chiqqan holda bilim egallashi orqali haqiqiy professional kadr bo'lib shakllanadi. Yetakchi esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Yig'inning bosh maqsadi esa jangovar tayyorgarlikka mas'ullarning mas'uliyatini yanada oshirishdan iborat. Va shunday ham bo'ldi. Natijalar ko'p kuttirmay, o'z samarasini beradi albatta.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,
"Vatanparvar"**

Mavsumga tayyorgarlik avi pallada

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugning Nukus garnizonidagi harbiy qism va muassasalarda har bir texnika uchun rejali topshiriqlar asosida ish reglamenti tuzilib, texnik xizmat hamda joriy ta'mir ishlari o'tkazilmoqda.



Har bir komandir, harbiy xizmatchi birlinchi o'rinda o'ziga biriktirilgan qurol-yarog' va harbiy texnikaning soz va shayligi uchun mas'ul hisoblanadi. Shu bois harbiy texnika va qurol-aslahalarni mavsumiy foydalanish rejimiga o'tkazish tadbirlariga o'ta mas'uliyat bilan qaratadi.

Ushbu tadbirlarni bajarishda texnologik xaritalarga ko'ra, harbiy qismlardagi texnikalarda sovutish suyuqliklari almashtiriladi, har bir jangovar mashina agregat va tugunlari tekshiriladi, yonilg'i, havo va moy tozalash filtrlarini almashtirish ishlari o'tkaziladi. Yonilg'i-moylash



mahsulotlari yangisiga o'zgartiriladi, elektr va aloqa jihozlarining sozligi nazoratdan o'tkaziladi. Xaritasiga asosan, agregat va tugunlar moylanadi, to'g'rilash, rostlash, payvandlash hamda bo'yoqlash ishlari amalga oshiriladi.



jihozlar, yong'in o'chirish tizimlari texnik ko'rikdan o'tkazilib, ularga xizmat ko'rsatiladi.

Texnik xizmat ko'rsatish ishlari malakali mutaxassislar nazorati ostida tashkil etiladi. Qisqasi,

Shuningdek, mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish ishlari yakunida mashinalarning zaxira anjomlariga ham texnik xizmat ko'rsatilib, ta'mirlanadi.

Quroq-aslahalar, kunduzgi va tungi optik mo'ljalga olish va kuzatish moslamalari, aloqa vositalari, maxsus

har bir harbiy xizmatchi o'ziga biriktirilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarmoqda. Maqsad yurt tinchligini munosib ta'minlashdan iborat.

**Podpolkovnik
Timur NARZIYEV**

Harbiy texnika ishonchli qo'llarda

Sharqiy harbiy okrug tasarrufidagi Farg'ona garnizonida joylashgan mazkur harbiy qismning asosiy yo'nalishlaridan biri harbiy texnika va qurol-aslahalarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash hisoblanadi. Harbiy texnikalarning uzlusiz va har doim jangovar shay holatda bo'lishi uchun mutaxassislar belgilangan tartibga ko'ra, rejalahtirilgan ta'mirlash ishlari va texnika vositalarini zarur ehtiyyot qismlar bilan ta'minlash jarayonlarini bajarib kelmoqda.



Texnik xizmat ko'rsatish ikki yo'nalishda – joyida, ya'ni harbiy qismda tashkil etilgan ustaxonalarda hamda ko'chma (mobil) usulda, ya'ni guruhning harbiy texnika joylashgan hududga borib xizmat ko'rsatishi shaklida amalgaga oshiriladi. Bu tartib texnik vositalarning har qanday sharoitda uzlusiz ishlashini ta'minlamoqda. Harbiy qismda maxsus ta'mirlash xonalari va zamonaviy texnika bilan jihozlangan servis bazalari mavjud.

Ayni kunlarda okrugga qarashli harbiy qism va muassasalarda qurol-asla hamda harbiy texnikalarni yozgi mavsumga o'tkazish bo'yicha



rejalahtirilgan tadbirlar jadallik bilan olib borilmoqda. Malakali mutaxassislar tomonidan qurol va texnikalarning holati chuqur o'rganilib, mavsumiy xizmat ko'rsatish ishlari professional darajada amalgaga oshirilmoqda.

Harbiy xizmatchilar zamonaviy texnologiyalar va diagnostika vositalaridan foydalangan holda texnik nosozliklarni bartaraf etmoqda. Texnik xizmat ko'rsatish jarayonida har bir mashina, har bir tizim alohida professional mexaniklar, elektromontyorlar, ta'mirlovchilar hamda texnik muhandislar tomonidan e'tibor bilan ko'rib chiqiladi.



tortdi. U kichik serjant Asqarali Sotvoldiyev edi. 2004-yildan buyon ushbu harbiy qismda xizmat qilib kelayotgan bu yigit – tokar, ya'ni metallni qayta ishlash, kesish va shakl berish sohasida o'z ishining ustasi. Uning bu boradagi bilim va ko'nikmalari faqat xizmat doirasidagina emas, balki san'at darajasigacha ko'tarilgani mashg'ulotlarda ham namoyon bo'lmoqda. U bo'sh vaqtlarida xizmat davomida yig'ilgan turli temir-tersak va metall qoldiqlaridan jangovar texnika modellarini yasash bilan ham shug'ullanar ekan.

harbiy xizmatga bo'lgan hurmatini ifoda etadi. Hozirga qadar bir necha texnika modellarini yaratishga ulgurgan va ularning ba'zilari hatto esdalik sovg'asi sifatida buyurtma asosida tayyorlanmoqda.

Qahramonimiz tomonidan mohirlik bilan tayyorlangan maketlar nafaqat o'ziga xos bezak, balki yosh harbiy xizmatchilar uchun ham harbiy texnikalarga bo'lgan mehrni oshiruvchi vositaga aylanmoqda.

**Leytenant
Mirjalol ABDUJABBOROV,
Sharqiy harbiy okrug
matbuot xizmati katta ofitseri**

Chegara qo'shinlarida



NAZARIY BILIMLAR AMALIYOTDA MUSTAHKAMLANDI

Bugun mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, xalqimizning osuda hayotini ta'minlash, el koriga kamarbasta bo'lib kelayotgan harbiylarimizning mashaqqatli xizmati evaziga ekanini barchamiz yaxshi bilamiz.

yetkazilgach, qatnashchilar yakka va guruh tarkibida bir-birlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlagan holda belgilangan topshiriqlarni ado etdi.

– Ma'lumki, har qanday mashg'ulotni o'tkazish uchun eng, avvalo tashkiliy ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. Bu gal ham ana shu talablar e'tiborga olinib, barcha o'quv nuqtalarida

kabi bir qator mashqlarni bajardi. Jarayonlarda yigitlar o'zlaridagi chaqqonlik, tezkorlik va jamoaviy jipslikni namoyon etish bilan birga, mustahkam iroda sohibi ekanini ham amalda isbotladi.

– Bugun o'zimni haqiqiy chegarachidek his qildim. Xizmat itlari bilan birga shartli chegara buzg'unchisini qo'lga oldik.



Zero jahon va mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyat Qurolli Kuchlarimiz oldiga qo'yilayotgan vazifalar ko'lамини yanada kengaytirib, milliy armiyamiz saflarini har tomonlama barkamol, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallagan, dunyoqarashi keng, asl vatanparvar o'g'lonlar bilan butlash talablarini qo'ymoqda.

"Chaqiruv - 2025" tadbirlari doirasida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga qarashli o'quv punktlarida askarlar qisqa vaqt mobaynida tajribali ofitser va serjantlarning sa'y-harakatlari bilan harbiy kasbning sir-asrorlarini o'rganib, dastlabki bilim va ko'nikmalarni shakllantirib kelmoqda.

Ma'lumki, har qanday nazariy bilim amaliyotda mustahkamlansagina ko'zlangan natijaga erishiladi. Ayni shu maqsadda, askarlar bilan Davlat chegarasi qo'riqlovini tashkillashtirishda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ko'plab jihatlarni o'zida qamrab olgan mashg'ulotlar tashkillashtirildi.

Xususan, Termiz shahrida joylashgan o'quv punktida bo'lib o'tgan mashg'ulotlar davomida muddatli harbiy xizmatchilar Davlat chegarasini buzib o'tgan shartli qurolli guruuhlar va noqonuniy o'tishga uringan chegara buzg'unchilarini qo'lga olish bo'yicha amaliy harakatlarni muvaffaqiyatli bajardilar.

Dastlab, mas'ullar tomonidan mashg'ulotning maqsad va vazifalari

zarur shart-sharoit va qulayliklar yaratildi. Albatta, amaliy mashqlar nazariylaridan katta farq qiladi. Shu boisdan real vaziyatlarga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlarda davomchilarimizga bunday vaqtida to'g'ri qaror qabul qilish nechog'li muhim ekanini tushuntirib berishga harakat qildik, – deydi podpolkovnik Ulug'bek Oripov.

Shu kabi amaliy mashg'ulotlar Toshkent viloyatining Bekobod shahri, Bo'stonliq va Zangiota tumanlarida joylashgan o'quv punktlarida, qolaversa Qoraqalpog'iston Respublikasining "Nukus" dala-o'quv maydonida ham tashkil etildi.

Askarlar ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalanish, belgilangan to'siqlardan o'tish

Zararlangan hududdan gazniqob bilan o'tdik. Bu jarayonlar xuddi bir vaqtlar kinolarda ko'rganimdek taassurot uyg'otdi. Ammo bularning barchasini bajarish filmlardagidek oson emas ekan. Katta kuch, iroda va matonatni talab qilarkan. Buni uddalaganimizdan juda ham xursandman, – deydi muddatli harbiy xizmatchi Ibrohim Rahmonov.

Ha, tez kunlarda Vatanga qasamyod qabul qilib, sarhadlarimiz himoyasiga kirishadigan bu o'g'lonlarimizga ayni damda egallayotgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalari kelgusidagi xizmat faoliyatida qo'l keladi, albatta.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

AHMAD NAYIM

O'QOY

Sovet davlatining maxsus idoralari tomonidan "imperializm ayg'oqchisi", "sotqin", "Vatan xoini" kabi qora ro'yxatga kiritilgan Ahmad Nayim kim edi? 1922-yilga qadar, ya'ni Germaniyaga o'qish uchun yuborilgungacha bu shaxs qanday hayot yo'lini bosib o'tgan? Buxoro Respublikasi hukumati Ahmad Nayimga qanday munosabatda bo'lgan? Xorijda o'z umrining asosiy qismini yashagan Ahmad Nayimning muhojirlidagi hayoti qanday kechdi? Bu kabi savollarga imkon qadar javob berishga harakat qilamiz.

SAVDOGAR OILASIDA TUG'ILGAN

Ahmad Nayim barcha Buxoro yoshlari kabi yuksak orzular bilan Germaniyaga o'qish uchun yo'l olgan, lekin Sovet mustabid tuzumining noinsoniy siyosati tufayli butunlay Vatanidan ajralib, bir umr g'urbatda yashagan sobiq turkistonlik talabalardan biridir.

Ahmad Nayim Nusratillobek Buxoro amirligining poytaxti Buxoro shahridagi Bozori gul ko'chasida, savdogar oilasida 1900-yilda tavallud topgan. Tarixiy manbalarda talabalar Germaniyaga qarab yo'lga chiqishganida uning 21-22 yoshlardagi yigit bo'lgani haqidagi ma'lumot ham ushbu sanaga muvofiq keladi. Qolaversa, A. Nayim AQShdagi Kolumbiya universiteti professori E. Ollvort bilan suhbatida ham o'z tavalludi bilan bog'liq yuqoridaq sanani qayta-qayta takrorlaydi. Oilasi yashagan boloxonali uy shahar qabristonining orqa tomonida joylashganiga alohida urg'u bergen. Ahmad Nayimning bobosi Murod Ashurboy karvonboshi, otasi esa hoji Abdulkarimboy nomi bilan el orasida yuksak obro'-e'tiborga ega bo'lgani qayd qilingan. Onasining ismi Nazokatoyim bo'lgan.

Buxoro o'rta asrlardayoq islom dunyosida alohida mavqe, hurmat va e'tiborga loyiq bo'lib, ilm maskani, ayni paytda xalqaro savdo-sotiq markazlaridan biri bo'lgan. A. Nayimning bobosi

Murod Ashurboy o'sha paytda taomilga ko'ra, 3 yil muddatga saylanadigan karvonboshilik lavozimini bir necha bor egallagan. Shuning uchun unga murojaat qilganlarida ismiga karvonboshi nomini qo'shib aytgan.

Karvonboshi lavozimiga saylangan shaxs Buxoroda savdo-sotiq ishlarni boshqargan, xaridor va savdogarlar o'rtaqida munosabatlarni nazorat qilish vakolatiga ega bo'lgan. O'ziga to'q, tijoratchi oilasida tug'ilgan Ahmadning ikki akasi bor edi. Birining ismi Abdulhalim bo'lib, ikkinchi akasining nomini tilga olmaydi. Uning ota tomonidan bobokalonlari asli Karki

(Turkmanistondagi shahar) shahridan bo'lib, turkmanlarning ersara (ersaroyli) urug'idan bo'lgan. Ona tomonidan tub buxorolik edi.

ILK SAFAR. ISTANBULDA 7 YIL

Ahmad Nayim yetti yoshiga qadar Buxoroda yashaydi. 1907-yilda onasi vafot etganidan so'ng amakisi bilan birga Qo'qon va Toshkent orqali Chimkentga o'tadi. Bu yerda qisqa vaqt yashagan aka-uka Halim va Nayim 1907-yilda tijoratchi amakisi bilan birga Turkiyaga ko'chadi. Istanbulga borib qolgan aka-ukalar 1907-1914-yillarda ibtidoiy (*boshlang'ich*) maktabda, litseyda, "Idadi" deb ataladigan o'smirlar ta'lif maskanida o'qidi. Bu davrda amakisi Istanbul orqali Misrga Buxoro mollarini yetkazib berib, savdo-sotiq ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. 1914-yilda boshlangan Birinchi jahon urushi natijasida savdo-sotiq rivojiga putur yetadi. Iqtisodiy ahvoli og'irlashishiga qaramay, aka-ukalar, amakilari yordamida fransuz tilini o'rgatadigan turk muallimidan saboq oladilar.

TALABALAR HOMIYSI

Ahmad Nayim Turkiyada tahsil oлган yillar bu mamlakatda "yosh turklar" hukumati ta'sirida ilg'or islohotchilik va ma'rifatchilik g'oyalari keng tarqalgandi. Turkiya Sharqdagi mazlum xalqlarning ozodlik harakati avj oлgan markaz sifatida yuzlab yoshlarni o'ziga chorlayotgandi. Bu mamlakatda Yevropadagi fan yutuqlari va ilg'or g'oyalarni o'zida jamlagen ensiklopediyalar hamda kitoblarni fransuz tilidan turk tiliga tarjima qilish keng yo'lga qo'yilgandi. A. Nayim fransuz tilini ishtiyoq bilan o'rganishga kirishib, bu tilni juda yaxshi o'zlashtirgan. Fikrimiz isboti sifatida uning XX asr 20-30-yillarida M. Cho'qay bilan birgalikda Parijda yashagani, Fransiya - Germaniya orasida qatnab, nemis shaharlarida tahsil olayotgan buxorolik talaba va o'quvchilar holidan xabar olib turganini aytish mumkin. Germaniyadagi o'zbek talabalarining ta'tili paytda Parijga qilgan sayohatlariga ham shaxsan A. Nayim hamroh bo'lgan.

Turkiyaning Istanbul shahrida istiqomat qilgan, ota-bobosi marg'ilonlik bo'lgan Sobir Sayhonli shaxsiy suhbatlarimizdan birida: "Men Ahmad Nayimni ikki-uch bor ko'rib, u bilan shaxsan suhbatda bo'lganman. Suhbatlarimizdan birida uning qo'lida qalin muqovali, fransuz tilida yozilgan, istiqlolimiz tarixiga oid

kitob bor edi. U menga bu kitobni o'zbek tiliga o'girishi kerakligi, unda o'zining nomi ham ikki bor tilga olinganligini aytgan edi. Lekin ushbu xayrla maqsad hosil bo'lgan yoki bo'lмагanligidan xabarim yo'q degandi".

BUXOROGA QAYTISH

Hoji Abdulkarimboy uch marta haj safarida bo'ladi. Savdo-sotiq ishlari bilan Istanbulga tez-tez boradi. Bu safarlarda u albatta farzandlarining ahvoidan xabar olib turgan. Fransuz tili o'qituvchisi bilan murosaga kelolmay qolgan Halim Ashurovni otasi 1914-yilda Buxoroga olib qaytadi. Ko'p o'tmay, Ahmad Nayim ham Buxoroga keladi.

1914-yilda Buxoroga qaytgan A. Nayim yoshligiga qaramay, jadidchilik harakati namoyandalariga yaqinlashadi. Ehtimol, u Istanbulda turganida bu shaharga o'qish uchun borgan Fitrat, Usmonxo'ja, Hamidxo'ja Mehri, Otaxo'ja, Mazhar Mahzum, Burxon Mahzum kabilalar bilan Turkiyadayoq yaqin aloqada bo'lgan. **"Buxoro maorifini umumlashtiruvchi xayıriya jamiyatı"**ning bir bo'limi Istanbulda ham ochilgan bo'lib, 1909-1913-yillarda davomida ko'p yoshlar u yerda tahsil olib qaytdi. 1911-yilda 15 ta, 1912-yilda 30 ga yaqin o'quvchi ushbu shaharda tahsil olish uchun yuborilgan edi.

Buxorolik yoshlarning birinchi guruhi Istanbulga borishidan ikki yil oldin (1907-yilda) bu shaharga yetib kelgan A. Nayim aytish mumkinki, tez kechayotgan siyosiy jarayonlarni balaligidanoq his qilgan.

OH, OTA YURTIMIZ, JONAJON VATAN!

Ahmad Nayim 1914-1917-yillarda Buxoro amirligidagi ko'pgina siyosiy voqealar guvohi va ishtirokchisi bo'lgan. Amirlikdagi islohotchilik harakati, jadidlarning ilg'or so'l qanoti (*islohot tarafдорлari*) bilan o'ng qanoti (*konservatorлar*) o'rtasidagi kurash, Said Olimxonning 1917-yilning apreliyidagi manifesti kabilar A. Nayim ongingin shakllanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. U Abdurauf Fitrat, Usmon Xo'ja, Abduvohid Burxon kabilar bilan maslakdosh bo'lgan.

A. Nayim 1917-yilning apreliyidagi amir manifestini yoqlab, Buxoro jadidlari uyuştirigan, oxir-oqibatda qonli to'qnashuvlar bilan tugallangan namoyishda ham ishtirok etgan. A. Nayimning eslashicha, jadidlari "Zinda bosh amiri Buxoro!" ("Yashasin, Buxoro amiri!"), "Ozodlik!", "Tenglik!", "Adolat!" shiorlari bilan namoyishga chiqishgan.

Ular: **"Oh, ota yurtimiz, jonajon Vatan! Bo'l bugun xursand va quvnoq!"** kabi misralar bilan boshlanadigan qo'shiqni aytib amir qarorgohi Arkka qarab borgan. Namoyishchilarning yoshlardan iborat guruhini endigina 17 yoshta bo'lgan Ahmad Nayim boshqargan.

U AQShlik professor E. Ollvort bilan suhbatida namoyishchilarning

KIM BO'LGAN?

ko'pchiligi hibsga olingani, amir zindonida Usmon Xo'ja, Atoulla Xo'ja kabilar bilan bitta obxonada yotganini aytgan. Hatto turk tilini yaxshi bilgan Atoulla Xo'ja unga: "Xo'sh, Nayimjon, bu yerda nega yolg'izsiz?" deb hazillashganda, "Siz yolg'izlanmang, deb biz ham keldik", deb hazilomuz fikr aytgan.

IKKINCHI SAFAR. ISTANBULDA 5 YIL

1917-yilning oxiri 1918-yilning boshlarida A. Nayim ikki turk ofitseri hamrohligida amir ayg'oqchilar ta'qibidan qochib, Ashxobod – Mashhad – Tehron – Mosul – Damg'on – Tabriz orqali ikkinchi bor Istanbulga boradi. Ahmad Nayim Istanbulda yashayotgan amakisi yordamida o'qishini davom ettiradi. Avval, Istanbul harbiy akademiyasining zahiradagi o'quvchilari ro'yxatiga yozilib, bu sohada biroz tahlil ham olgan. Lekin iqtisodiy ahvoli tufayli harbiy akademiyani tashlab, nafaqa (*stipendiya*) berib o'qitadigan Istanbul universiteti oliy va o'rta maktab o'qituvchilari kursiga o'qishga kirgan.

1918–1920-yillarda Istanbul universitetida o'qib yurgan A. Nayim Buxoroda amirlik tartibi ag'darilgani, Buxoro Xalq Respublikasi hukumati tuzilganidan xabardor bo'ladi.

FITRATNING TAKLIFI

1922-yilda u Turkiyaga kelgan buxoroliklar vakilidan Fitratning taklifini oladi. Buxoro Respublikasi hukumati rahbarlaridan biri Fitrat Ahmad Nayimni yaqindan tanir edi. Shuning uchun ham unga "Biz sizdek kishilarga muhtojimiz!" deb Buxoroga taklif qiladi. **Ahmad Nayim o'qishini tugatmagan bo'lsa-da, bir necha turk vakillari bilan birga kitob chop etish uchun zarur bo'lgan tipografiya uskunalarini hamda bir qancha kitob, o'quv anjomlarini olib, Buxoroga yo'l oladi.** Italiya savdo kemasida Botumi portiga, undan Bokuga yetib kelgan Ahmad Nayim Ozarbayjondagi Buxoro Respublikasi vakolatxonasiga boradi.

1922-yilning oxirigacha mavjud bo'lib turgan Ozarbayjon Respublikasiga 1921-yilning yozidayoq Buxoro Respublikasidan mashhur matbaachi "Buxoro axbori" gazetasining birinchi bosh muharriri Mahmud Said Ahroriy (1895–1931-yillar) elchi qilib yuborilgan edi. Keyinchalik uning o'rniga Muhiddin Maxsum tayinlanib, u Buxoro hukumatining Ozarbayjondagi vakolatxonasini boshqaradi. Ahmad Nayim uning huzurida ikki hafta mehmon bo'lib turganidan so'ng Fitratning shaxsan talabi bilan Boku – Krasnovodsk – Ashxobod – Chorjo'y yo'nalishi orqali Buxoroga yetib boradi.

YANA BUXOROGA QAYTISH...

1922-yilning dastlabki oyalarida Buxoroga kelgan Ahmad Nayim

Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Ato Xo'ja, Yusufzoda, akasi Halim Ashurov va ko'plab qarindoshlari bilan uchrashadi. U Ollvort bilan qilgan suhbatida tashqi ishlar vaziri bo'lgan Abdurauf Fitrat Ahmad Nayimga: "**Sen bizning hukumatda harbiy vazir bo'lishing kerak edi**", degan fikrni bildirganini aytadi. Ahmad Nayim Abdurauf Fitratdan o'z qarindoshlarini ko'rish uchun Samarqand, Toshkent, Sharqiy Buxoro (*hozirgi Tojikiston Respublikasi*)ga borib kelish uchun ijozat so'ragan. Abdurauf Fitrat respublikadagi mushkul vaziyatni unga tushuntirib, Anvar posho bilan omonsiz janglar davom etayotganini aytadi.

ILTIMOS...

1922-yilning bahor va yozida Buxoro Respublikasi hukumati Germaniya o'quv yurtlariga talabalarni yuborish masalasida amaliy harakatlarni boshlagandi. Germaniyaga o'qish uchun buxorolik yoshlar birinchi marta 1922-yilning iyun-iyul oylarida yuborilgan edi. Nazarimizda, Ahmad Nayim xorijga talaba yuborish mutasaddilari bo'lgan Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Qori Yo'ldosh Po'latov, Abduvohid Burxonovlarga xorijdagi o'qishi chala qolgan, talabalar bilan birga Germaniyaga oliy ma'lumot olish uchun yuborishlarini iltimos qilib so'ragan. Turkiyada ikki marta bo'lib, Istanbul dorulfununida tahlil olgan, bir qadar tajriba va bilimga ega Ahmad Nayimning Germaniyada o'qish uchun talabalar safida jo'nashiga ular monelik qilmaydi. Buxoro Xalq Respublikasining Germaniyaga jo'natilgan birinchi guruh talabari qatorida Ahmad Nayim ham xorijga o'qish uchun ketdi. Uning eslashicha, buxorolik yoshlar 15 kishidan iborat bo'lib, ular orasida Vali Qayumxon, Ahmadjon Shukriy, Sattor Jabbor, Said Ali Anqara ham edi.

TEMUR ZIYORATI VA MUHOJIRLIKNING UCHINCHI DAVRI

Buxoro talabari Germaniyaga jo'nashlaridan oldin Abdurauf Fitrat yetakchiligidagi Samarqandga borib, Amir Temur maqbarasini ziyorat qiladi. Keyin Toshkent orqali Moskvaga yetib boradi. Hatto Moskva ko'chalarida Buxoro Respublikasining bayrog'ini ko'tarib, namoyish o'tkazadi. Moskvadan Petrogradga kelgan buxorolik bo'lajak talabalar nemis kemasida Boltiq dengizi orqali Germaniyaga jo'nab ketadi. Shunday qilib, Ahmad Nayimning muhojirlik hayotidagi uchinchi davri boshlanadi.

1924-yilda Buxoro Xalq Respublikasi davlatchiligining tugatilishi, Sovet jamiatidagi qatag'on va qirg'inlar, mafkuraviy to'siqlar tufayli Buxoroning Germaniyadagi talabari o'z holiga tashlab qo'yildi. Taqdирning achchiq qismati tufayli o'nlab o'z yurtiga

qaytgan sobiq talabalar "nemis ayg'oqchisi", "sotqin", "Vatan xoini" kabi asossiz ayblar bilan yo'qotildi yoki ularning asosiy qismi Sibir va Magadan o'rmonlarida 15-20 yil qamoq azobini tortdi.

BERLINDAN ISTANBULGA

Ahmad Nayim 1925–1930-yillarda talabalarning O'zbekistonga qaytib borishi xavfliligini anglab, ularni Turkiya Respublikasiga ko'chirish va joylashtirish choratadbirlarini ko'radi. Berlin va Istanbul orasida qatnab yurgan Ahmad Nayim buxorolik olti nafar talabani Turkiyaning turli shaharlariga joylashtiradi. O'sha paytda Turkiyada boshpanaga ega bo'lish ham oson emasdi. Xorijda yashab qolgan talabalar soni 14-16 ta atrofida ekanini hisobga olsak, 6 kishining hayotini saqlash uchun Ahmad Nayim haqiqiy o'ktamlik qilgan. **Ahmad Nayimga ushbu xayrli ishlari, qat'iyati va jasorati, ko'rsatgan jonbozligi uchun "O'ktam" degan nom ham berilgan.** U hayotini saqlab qolgan o'zbek millati vakillari Turkiya Respublikasining oliygochlari fan doktorlari, professorlar darajasiga ko'tarildi. Ularning ilmiy tadqiqotlari Turkiston tarixi, madaniyati, iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy muammolari masalalariga qaratildi.

O'QOY – O'Q VA OY

XX asrning 30-yillarida Ahmad Nayimning o'zi ham Turkiyaga ko'chib o'tadi. Mustafo Kamol Otaturk Turkiyada yuritgan milliy siyosat zaminida turk millatining birligini mustahkamlashga qaratilgan maqsad yotadi. Shuning uchun 1935-yilden boshlab, barcha Turkiya fuqarolariga millatidan qat'i nazar turkcha familiya olish tartibi, qonuni joriy qilingan. Ahmad Nayim (*O'ktam*) ham shundan keyin o'ziga O'qoy (*O'qtoy*) familiyasini tanlaydi. O'qoy – o'q va oy qo'shiluvidan iborat yagona nomdir.

BUXOROLIK BIRINCHI IQTISODCHI OLIM

Ikkinchi jahon urushi yillarida Ahmad Nayim Usmon Xo'ja singari yurtdoshlarimiz qatori turli mamlakatlarda yashashga majbur bo'ladi. 1954-yilda Istanbulda "Turkistonliklar kultur va sotsial yordamlashma jamiyatasi" ("Turkiston madaniy va ijtimoiy yordamlashma jamiyatasi") tuziladi. Mazkur jamiyat Turkiyadagi millatdoshlarimizni birlashtirish, milliy madaniyatimiz, tilimiz va o'zligini saqlash, madaniy jihatdan bir-birlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan edi. Maqsadi xayrli ishlar bo'lgan jamiyatning birinchi raisi Ahmad Nayim O'qoy bo'lgan.

1960-yilga qadar turkistonliklar tashkilotini boshqargan Ahmad Nayim bir payting o'zida Istanbul

shahar kommunal xo'jalik xizmatida mutasaddi rahbarlardan biri edi. Muhojir o'zbeklardan Z. Boboqurban "Ahmad Nayim Berlinda o'qigan buxoroliklardan birinchi iqtisodchi olim edi", deb ma'lumot beradi.

"ASHURBOY" TAXALLUSI BILAN

U xorijdagi o'zbeklar tomonidan asos solingen bir qator matbuot organlarida o'z maqolalari bilan qatnashib turgan. Jumladan, Mustafo Cho'qayning "Yosh Turkiston" jurnalida "Ashurboy" nomi bilan maqolalar e'lon qilgan. "Ashurboy" taxallusini olishi bobosi Ashur Murod Karvonboshi xotirasiga izzat-hurmat ramzi edi.

1975–1977-yillarda Turkiyadagi muhojir o'zbeklarning "Hur Turkiston uchun" gazetasi lotin imlosida, turk tilida chop etilgan. Ushbu gazetaning 1976-yildagi 39-sonida Ahmad Nayimning "Usmon Xo'ja Po'latxo'ja o'g'li" nomli yirik maqolasi chop etilgan. Maqola matnidan Usmonxo'jani Ahmad Nayim yaqindan bilgani, ushbu tarixiy shaxs haqida avtobiografik boy ma'lumotlar berganining guvohi bo'lamiz. O'zbek adibi Tohir Qahhor "Hur Turkiston uchun" (*Toshkent, "Cho'lpon", 1994*), turk tarixchisi Mehmet Saray "Otaturkning Sovet siyosati" (*Istanbul, 1990, turk tilida*) nomli kitoblarini yozishda Ahmad Nayimning yuqorida nomi ko'rsatilgan maqolasidan foydalangan.

Muhojir o'zbeklardan biri o'z maqolasida Turkistonda jadidchilik harakatining so'nggi vakillari 1937–1938-yillardagi qatag'onlik siyosati natijasida uzil-kesil mahv etilganini yozgandi. Ushbu fikrga biroz e'tiroz bildirgan holda aytamizki, jadidlarning istiqlol va ozodlik uchun kurashlari xorijiy mamlakatlarda Usmon Xo'ja Po'latxo'jayev (1878–1968) va Ahmad Nayim (*O'ktam*) O'qoy (1900–1984) kabilar orqali uzoq davom etdi.

1984-YIL 21-APREL...

Ahmad Nayimning 1946-yilda tug'ilgan qizi ma'lumotiga ko'ra, Buxoro jadidchilik harakati ishtiroychisi, Buxoro Respublikasining 1920-yillarda Germaniyaga o'qish uchun yuborgan talabalaridan biri 1984-yil 21-aprelda Istanbulda vafot etgan. Ahmad Nayimning jasadi Istanbulning Anatolian qismidagi Karasaahmed qabristoniga dafn etilgan.

Vatan hasrati va dardida muhojirlikda vafot etgan Ahmad Nayim singari yurtdoshlarimizning orzu-umidlari istiqlol tufayli ro'yogba chiqdi. Inchunin, yurtimizni hur va ozod ko'rish, mustaqil mamlakatda yashash ularning maqsadi edi.

**Shodmon HAYITOV,
tarix fanlari doktori.
Kamol RAHMONOV,
tarix fanlari nomzodi**

Agar yo’lingiz Qamashi tarafga tushsa, Qamayning Oqquzar qishlog’i yonidagi atrofi panjara bilan o’ralgan do’ngsalikka ko’zingiz tushishi tayin. Men ham bu yo’llardan ko’p o’tganman, gohida qiziquvchanligim sabab tanish-bilishlarimdan o’sha joy haqida surishtirgan bo’lsam-da, birorta tayinli javob olmaganman.

XUDOYBERDI HOJI QISMATI

Kunlarning birida Chimlik adib Temirpo’lat Tillayevning xonadonida Qashqadaryo viloyati “Oltin meros” Xalqaro jamg’armasi rahbari, taniqli adiba Sharofat Ashurova bilan ko’rshib, bu joy haqida so’radim.

Savolimni eshitgan opamiz muloyim kulimsirab:

– Hay, soddagina ukam-a, axir o’sha joyda siz qadrondan ukam deb yurgan Temirpo’latning bobosi Xudoyberdi hoji o’tgan asrning yigirmanchi yillari o’ttalarida g’animlari tomonidan otilgan-da, shuni ham bilmaysizmi? – deya javob berdi.

Hayratlanarlisi, men qariyib o’ttiz yildan beri bordi-keldi qilib yurgan, kunda bo’lmasa ham, kunora telefonlashib turadigan ukamiz nega bu joy haqida lom-mim demaganiga hayron bo’lib qolgandim.

– Ancha yillar avval Qamay baxshichilik makkabining tarixini o’rganib, 64 baxshining ijodiy faoliyatini aniqladim va shu sulolaning eng so’nggi vakili Hazratqul baxshi shajarasini o’rganib, hayron qoldim, – deya so’zida davom etdi Sharofat opa.

Chunki Hazratqul baxshining otasi Xudoyberdi hojining ibratlari hayoti meni qiziqitirib qo’ygandi. Qamay qo’ng’irotlari orasidan o’tgan asrning boshida hojilik martabasiga erishgan u insonning umr yo’lini o’rganganim sari hayratim oshib bordi. Biroq Xudoyberdi hojining ona tarafdan Temirpo’lat Tillayevning bobosi bo’lib chiqishini tasavvur ham qilmagan edim, o’shanda...

...SHUNDAY QILIB, qamaylik Mo’minboyning 1880-yilda dunyoga kelgan Xudoyberdi ismli o’g’li avval qishloq mullasining qo’lida boshlang’ich savod chiqargach, Samarqand madrasalarida tahsilni davom ettiradi va o’sha dargohda saxovatpesha bir mudarrisning ko’magi bilan Buxoroga yo’l oladi, mashhur Mir Arab ilmgohida o’qidi.

Tahsilni tugatib, o’zi ilm olgan madrasada ikki yil mudarrislik qildi va qadrli ustozni bilan muqaddas haj ziyoratini ado etish uchun yo’lga tushadi.

Haj amallari ado etilayotgan kunlarning birida arabistonlik bir guruh mashoyixlar ularni sinab ko’rmoq uchun Movarounnahrda istiqomat qilayotgan Quraysh urug’lari va ularning ma’naviy mulki

haqida so’raydilar. (*Katta Langar Qur’oni va Payg’ambar xirqasi ko’zda tutilgan*). Xudoyberdi ustozining biroz ikkilanib qolganini ko’rib, vazminlik bilan ularga arab tilida to’liq va mufassal javob beradi.

Imom Buxoriy yurtidan kelgan Xudoyberdining burro javoblari makkalik ulamolarni lol qoldiradi va ularning sardori ustidagi qora chakmonini yechib, Xudoyberdi hojining yelkasiga yopdi. Xudoyberdining bu muvaffaqiyati darrov to’rt tarafga ovoza bo’lib, hatto Qamayga ham yetib keladi.

Hajdan qaytgan Xudoyberdi yana ikki yil Buxoro muzofotlaridan birida mudarrislik qilgach, ustozining roziligi bilan ota eliga – Qamayga qaytadi.

ORADAN IKKI YIL O’TIB, yana muqaddas haj ziyoratiga otlanadi. Bu gal yosh Xudoyberdi o’zining qarindosh va qishloqdoshlaridan to’rt kishini ulug’ ziyoratga olib ketadi. Ular omon-eson haj ziyoratini ado etib, qaytadi. Bu himmat va oliyjanoblik Xudoyberdining eldag'i obro’sini yanada oshirib yuboradi.

Shu orada Xudoyberdi hoji Chim qishlog’ida yashovchi Hakimboyning Mayram ismli qiziga uylanadi. Mayram niyoyatda suluv va oqila, “Qur’on”ni hatm qilgan ilmli ayol edi. Ular Buxoro amiri taxtni tashlab qochgan 1920-yilda Oynaxol ismli qiz (*Temirpo’lat Tillayevning onasi*) va sho’rolar bosqini boshlangan kezlarda Mahmud otli o’g’il ko’radi. Bilimdon, adolatparvar, serg’ayrat Xudoyberdi hoji yaxshigina davlatmand bo’lgani uchun sevimli ayoli Mayramga Qamayda qizlar o’qiydigan muktab oshib beradi.

Aslida, Mayram Chim qishlog’ida ham otasi Hakimboyning hovlisida muktab oshib, 40 nafar qizni o’qitar edi.

Biroq Xudoyberdining bu ishlari endigina oyoqqa turayotgan sho’rolar davlati siyosatiga soya solardi, albatta. Qashqadaryoda, xususan hozirgi Qamashi tumani xududlaridagi chekka qishloqlarda sho’rolar o’zining ChSB (*Chala savodni bitirish*) kurslarini ochish taraddudiga tushgan, hatto bu ishga arab imlosini biladigan ko’plab tatar va boshqa millatga mansub kishilarni safarbar qilgandi.

Nihoyat, sho’rolarning maxsus harbiy idoralari Xudoyberdi hojini yo’q qilishning ayyorona yo’lini

topishdi, ya’ni “sopini o’zidan yasashdi”. Ular Oqmizabek boshliq bo’lgan talonchilikni kasb qilib organ cho’nqaymalar to’dasini bu ishga jalb etadi.

KUNLARNING BIRIDA

qo’shni qishloq masjididan nomoz o’qib qaytayotgan Xudoyberdi hoji qurollangan otiqlar tomonidan qo’lga olinib, to’da boshi Oqmizabek tomonidan 1924-yil kuzida otib o’ldiriladi. Atrofi panjara bilan o’ralgan ana shu do’ngsalik – Xudoyberdi hoji otilgan, ya’ni shahid qilingan joy.

Oradan ko’p fursat o’tmasdan xonaga mezon Temirpo’lat Tillayev kelib o’tirdi va suhabatimiz mavzusini eshitgach, biroz o’yga tolib dedi:

– Onam rahmatli otasi

Xudoyberdi hoji o’ldirilganda to’rt yoshda bo’lgan. Volidam momomiz mulla Mukaram va onasi mulla Mayramdan ko’p voqealarni eshitib ulg’aygan. Sho’rolar sultanatining qattol siyosati qurbanib birgina otasi Xudoyberdi hoji bo’lib qolmay, keyinchalik tog’alari Jabbor, Hazratqul, Ovloqul Hakimovlar, qaynotasi Tilla Karvon Ismoilov va ularning maslakdoshlari Abdirahmon Do’stov, Salomatxon eshon O’zbekov, Tilov Jo’rayev “xalq dushmani” degan soxta ayblov bilan qamaldi. Shulardan birgina Nabi Sanayev uzoq yillardan keyin qishloqqa qaytib kelgan.

Oilada ota-onamning to’rt qizdan keyin tilab olgan o’g’li bo’lganim uchun anchagini erka o’sdim. Mening bolalik va o’smirlik davrim o’tgan asrning 70-yillariga to’g’ri keldi. U paytlarda hozirgidek televizor, uyalu telefon deganlari yo’q edi.

Ayniqsa, qishning olis kechalarida qo’ni-qo’shnilar ko’pincha biznikiga kelib gurung qilar, keksa bobomolar nimalarni aytмаган deysiz bu gurunglarda. Enamning pinjiga kirib ularning suhabatlarini tinglardim.

EH, QANI EDI, o’sha paytlarda hozirgidek ovoz yozish uskunalarini bo’lganda edi... Qanchadan qancha voqealarning tafsilotlari izsiz yo’qolib ketmagan bo’lardi. Men esa yosh edim va bu kechmish voqealari kimlar haqida ketayotganiga unchalik ahamiyat bermasdim. Keyinchalik ul-bul qoralayotganimda esa onamdan bobomning ayanchli taqdiri haqida so’raganimda tanbeh eshitardim:



– Nima qilasan eski gaplarni kovlashtirib, tag’in bobong haqida bir nima yozib, boshing baloga qolmasin, deyman-da, bolam... Ey, bu qattol sho’rolar davlati “hojining qizi” deb ne-ne malomat toshlarini otishmagan boshimizga... Bilaman, yoshsan, qiziqqonsan, mayli istagan narsangni yozaver, biroq bobong Xudoyberdi hoji to’g’risida zinhor yozma, meni desang...

Onamning bu so’zlariga uzoq yillar amal qildim. Xudoyberdi hojining ona tomonidan bobom bo’lishi haqida hech kimga gapirmaganman.

Lekin baribir... ko’nglimdagidardlar bundan o’ttiz besh yil avval yozilgan ”Quyosh soyasi” romanimda o’z aksini topdi.

Xudoyberdi hoji dunyo ko’rgan, keng fikrli kishi bo’lgan. Obro’yli, bilimli kishilar bilan doim muloqot qilib turgan, hatto kitoblik mashhur Jo’rabek dodxoh (*general*) bilan ham qadrondon do’st bo’lgan ekan.

Bobomning uyida kattagina kutubxonasi bo’lib, unda diniy kitoblardan tashqari boshqa tillarda bitilgan dunyoviy kitoblar, turli mamlakatlarda nashr etilgan gazetajurnallar ham ko’p bo’lgan. “Qama-qama”lar avj olgan yillarda momom boshimizga balo bo’lmasin deb, ularni qayergadir yashirgan va buni hech kimga aytмаган.

Bobom o’zi mablag’ bilan ta’minlayotgan maktablarda ilm olishga ixlosmand yoshlarni Buxoro va Samarqand, hatto Turkiya va arab mamlakatlariga o’qishga yuborishni rejalashtirib yurgan.

Afsus, u kishining bu ezgulik va ma’rifatparvarlik yo’lidagi ishlari amalga oshmasdan qolib ketgan. Lekin elning xotirasini hech bir kuch o’chira olmaydi.

**O’rolboy QOBIL,
O’zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a’zosi**

Qahramonlar nomi barhayot


"Shamolning mayin ifori yuzimga urilmoqda, osmonning ko'zlarini ko'rdirim. Bolaligimda dalaga mol boqishga borganimda tabiat bilan ko'p suhbat qurardim. Qishlog'imiz etagida qalin terakzor bo'lib, qushlarning chug'ur-chug'uridan ko'nglim yorishardi. Onamning issiq kulchalari, uyimiz yoqasidan o'tgan ariq. Otamning yelkasidagi ketmon, ukalarim, hammasi ko'zim oldidan birma-bir o'tmoqda, lahzada abadiyat bilan yuz ko'rishdim. O'lim ko'lankasi yuzlarimga soya solib turibdi, dushmanlarimning oyoq tovushlarida titrayotgan qo'rquv ham shundoq quloqlarim tagida".

(Bu so'zlar Elomon Otajonovga tegishli)

"Vatanimni yaxshi ko'raman, hammangizni yaxshi ko'raman"

Sariosiyo voqealaridan bexabar yurtdoshlarimiz bo'lmasa kerak. Vatanimiz tinchligiga raxna solmoqchi bo'lgan, ba'zi g'alamis, terrorchi guruhlarga qarshi kurashda jon bergan qahramonlarimiz ham barchamizning yodimizda.

Qo'limga qalam olib Elomon haqida yozar ekanman, bu jasur yigit o'z nomi bilan dunyoga kelgan ekan degan xayol o'tadi ko'nglimdan. Avval bunaqa ism eshitmaganman, agar kimdir o'z ismining yukini chinakam ko'tara olgan desak, u, shaksiz, Elomon Otajonovdir.



"Onajon, bu safarsovchilikka borasiz"

- O'g'lim ichimdagini top, deydiganlar safidan edi. "Bolam, bo'ying ham yetib qoldi, o'rtoqlaring ham birin-ketin uylanyapti, otang bilan kelishib seni uylamoqchimiz. Agar ko'nglingda biror kim bo'lsa, ayt, tanlaganining bo'lmasa, o'zim senga munosib qiz topib beraman", dedim. Ko'zlarini katta-katta ochib jilmayadi. "Bu safar uyga qaytganimda, albatta, sovchilikka borasiz, ona", degancha tizzamga boshini qo'yib xonanining bir burchiga uzoq termilib yotdi. Bolam ichidagi mehr-muhabbatini oshkor etavermasdi, bu safar: "Ona, rahmat hammasi uchun, sizni judayam yaxshi ko'raman", dedi. "Men ham yaxshi ko'raman, arslonim, onang o'rgilsin, hali bir kuyov bo'l, yetti mahallani chaqirib, katta to'y beramiz, to'yingda ro'molim boshimdan tushguncha o'yayman, bolam", deb yuzlarini silab o'tirdim. Tongda jo'nab ketdi, shu-shu, qaytmadi. Haligacha yo'l qarayman, hozir eshikdan kirib keladigandek bo'laveradi.

Elomonning quloqlarimga pichirlayotgan so'zları

- Ko'ksimga tekkan o'qdan ko'z oldim bir muddat qorong'ilashdi, hamma narsa ko'z o'ngimdan o'ta boshladi. Og'riqdan o'zimga keldim, baribir omon qolmayman. Mening yuragimni ezayotgan tuyg'u esa o'limdan ham og'ir edi. Hozir jimgina o'limga bosh egsam-u, do'stlarimning boshiga ham mening kunim tushsa, bundan yomoni yo'q. O'zimni tutdim, qo'limga qurolimni olmoqchi bo'ldim-u, ko'tarolmadim. Odam tirik ekan, hammasiga qodir, dedim. Dushmanlar men tomonga yaqinlashib kelayotganini ko'rib turibman: soch-soqoli o'sgan, boshida sallasi, ko'zlarida insoniy tuyg'ulardan zarra ham yo'q. Ratsiyani oldim-u, ko'rganlarimni so'zlay boshladim. Ko'z o'ngim qorong'ilashib ketar, ikki olam orasida edim, go'yo. Yodimning bir burchida ota-onam jonlanib turibdi. Ko'zim yana ochilib, terrorchilar menga ancha yaqin qolganiga guvoh bo'laman. Bor kuchimni to'plab, qurolimga yopishdim, endi holim barmoqlarimni qimirlatishga ham yetmasdi. Otam, onamdan xabar ololmasligimni o'ylash

hammasidan og'ir edi. Qaytaman, degan va'damni bajarolmaganim ko'nglimni tilka-pora qilmoqda. Ulardan xabar olib turing!

**Vatanimni yaxshi ko'raman,
Hammangizni yaxshi ko'raman.**

Mana, kuragimga yana o'qlar kelib tegdi. Osmonning ko'zlarini mening ko'zlarim-la birlashib, oqlik aro singib ketmoqdaman.

Elomon mardlarcha jon beradi. Sariosiyo tog'lari, archazorlari, har giyoh, har maysa bu mard yigitning xunini olgisi kelgandek tuyulaveradi menga. Keyin yuragimdan shu misralar otilib chiqa boshladi:

**Yelkasidan o'q yegan daraxt,
Chap ko'ksida dog'i bor o'rik,
Bag'ri qonga belangan shafaq,
Miltig'ingning ko'zida yiring.
O'ch oladi, to'latar tovon,
Sen ko'nglingni to'q qil, Elomon!**

**Bolalikni esla, maysazor,
Kapalaklar uchar gullardan.
Varragingni uchirib shamol,
Yulduz sanab yotgan tunlarda.
Senga ham joy ajratdi osmon,
Yulduz bo'lib porla, Elomon!**

**Sen borarsan oldinda mag'rur,
Kiprigingga yuqtirmay hasrat.
Pistirmada yotgancha mal'un,
O'q uzmoqda ko'ksingga nomard.
Bir boshingga ming bir olomon,
Bosh ko'tarib kelar Elomon!**

**Sen boshingni egmaysan, og'a.
Yovga ko'ksing etgancha qalqon.
Tepangdan o'q yomg'iri yog'ar,
Pichirlaysan bo'lib yarimjon.
Vatanimni asrang sog'-omon,
Vatanimni asrang sog'-omon.**

Bu dunyo yaralgandan beri qancha mard yigitning ko'ksi nomardlar o'qiga qalqon bo'lmasdi, deysiz. To'rtta she'r yozib, mardlik haqida og'iz ko'pirtirishdan nariga o'tolmagan mendek ijodkorlar bu yigitning qahramonligini ibrat qilib olsa, arziydi. Men ishonamanki, bu Vatanning Elomonlari hali juda ko'p. Endi ular Vatan uchun jon berib emas, kezi kelganda jon olib yurtga xizmat qiladi.

Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"

"Vatanparvarlar" musobaqasi

Nukus garnizonidagi harbiy qismlardan birida o'tkazilgan "Vatanparvarlar" musobaqasining Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichi 17 ta shahar va tumandan kelgan eng sara jamoalarga sog'lom raqobat muhitida kuch sinashish hamda bilim, iqtidor va shijoatini namoyon etishga imkon yaratgani bilan ahamiyatlari bo'ldi. O'quvchilardagi hayajon, g'alabaga bo'lgan shijoati, harbiycha qat'iyat bellashuvning har bir shartida yaqqol ko'zga tashlandi. Bu esa musobaqanining nufuzi yildan yilga ortib borayotganidan dalolat beradi.



QORAQALPOG'ISTONLIK YOSHLAR SHIJOAT VA MATONATNI NAMOYISH ETDI

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlari va Favqulodda vaziyatlar, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliliklari, Yoshlar ishlari agentligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiya, Yoshlar ittifoqi markaziy kengashi, "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi hamda boshqa davlat va jamoat tashkilotlarining 2024-yilgi qo'shma qaroriga assosan, umumta'lim maktablaridagi "Vatan tayanchi" otryadlariga a'zo bo'lgan bitiruvchi sinf o'quvchilari o'rtaida mudofaa vazirining kubogi uchun o'tkazilayotgan "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqasi yoshlarda harbiylikka havas uyg'otib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hissa qo'shmoqda.

Har bir jamaa a'zolari harbiy liboslarda mag'rur saf tortib, kuchli raqobat uchun o'zlarini ruhan tayyorladi. Qat'iy intizom va g'alabaga bo'lgan ishtiyoiq bellashuvning har soniyasini his-hayajonga, g'ayrat-u shijoatga to'ldirdi.

Musobaqaning ochilish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi hamda boshqa davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari va o'quvchilar qatnashdi. So'zga chiqqanlar musobaqa ishtirokchilariga zafarlar yor bo'lishini tilidi.

Musobaqa nizomiga ko'ra, bellashuvda har bir jamoadan 7 nafar

o'g'il va 3 nafar qiz bola ishtirot etishiga ruxsat berilgan. Harbiy sport musobaqasining "Merganlar bellashuvi" deb nomlangan 1-shartiga ko'ra, yoshlar sport miltig'idan nazorat otish mashqi orqali menganlik mahoratini namoyish etdi.

Besh nafar o'g'il bola ishtirot etgan "Turnikda tortilish" shartida 4 daqiqa vaqt ichida kuchlarini sinovdan o'tkazib, eng ko'p natija qayd etishlari kerak bo'ldi. "Harbiylashtirilgan estafeta" shartida ishtirokchilar o'qotar qurolni noto'liq qismlarga ajratishi va yig'ishi, gazga qarshi niqobni kiyishi va o'q-dori qutisini ko'tarib yugurishi kerak bo'ldi. Bu shartda jamoadan 4 nafar ishtirokchi qatnashdi.

Bahslarning "Jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish" deb nomlangan 4-shartida ikki nafar ishtirokchi 50 metr masofaga zambilni ko'targancha yuguradi va marrada yotgan shartli jabrlanuvchiga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatadi. Shundan so'ng jabrlanuvchini zambilga ortib, finish tomon yuguradi.

"Safda qo'shiq aytish" deb nomlangan keyingi shartda jamoalar safda shaxdam qadamlar bilan yurib, harbiycha qo'shiqlarni jonli ijro etishi belgilangan. Bunda saf elementlarini nizom qoidalari asosida bajarishi, safda yurishi, qo'shiq kuylashi, ust-bosh kiyimi uchun har bir jamaa baholandi.

"Bilimdonlar" deb nomlangan keyingi shartda o'quvchilar elektron dastur orqali Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzoning harbiy faoliyati, Markaziy Osiyo davlatchilik tarixi hamda O'zbekiston tarixi bo'yicha 15 tadan 30 tagacha bo'lgan test savollariga javob berishi va ularning har biri uchun qo'shimcha ball egallashi mumkin bo'ldi.

"Vatan madhi" shartida jamoalarning san'atkorlik mahorati sinovdan o'tkaziladi. Unda 5 nafardan kam bo'limgan tarkibda qatnashgan ishtirokchilar jamoaviy va yakka tartibda vatanparvarlik ruhidagi milliy qo'shiqlarni kuylab, o'zlarining mahoratlarini namoyish etdi.

Bu yilgi musobaqa nizomiga kiritilgan yangi shartlardan biri, ya'ni "Smart sardor" ixtirochilik tanlovida ishtirokchilar o'zlarini ixtiro etgan robototexnika yoki boshqa zamonaviy loyihalarni taqdim etishi kiritilgan. "Smart sardor" o'quvchilarni tajribaga ilhomlantirish, amaliy o'rganish va jamoada ishlash ko'nikmalarini orqali o'ziga ishonch, tanqidiy fikrlash, dizayn ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Musobaqaning har bir shartida ishtirokchilarning xatti-harakati vaqt mezonii bilanadolatli baholab borildi.

Bellashuvning yopilish marosimida nutq so'zlaganlar bugungi kunda

mamlakatimiz yoshlariga bo'layotgan e'tibor, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi yutuqlarni e'tirof etib, harbiy okrug hududida mana shunday tadbirlarni o'tkazish uchun barcha sharoitlar bundan keyin ham yaratib berilishini ta'kidlashdi.

Nihoyat hayajonli damlar yetib keldi. Dastlab musobaqa shartlarida alohida ko'rsatkichlarga erishgan o'quvchilar va jamoalar taqdirlandi. Unga ko'ra, "Eng kuchli sportchi", "Eng yaxshi mengan", "Eng yaxshi bilimdon", "Eng yaxshi ijrochi" va "Eng yaxshi ixtirochi" kabi bir qator nominatsiyalar bo'yicha yoshlar yakkalik va jamoaviy tartibda mukofotlandi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, Taxtako'pir tumani 2-umumta'lim maktabining "Burgutlar" jamoasi shohsupanining uchinchi pog'onasidan joy oldi. Kegeyli tumani 41-umumta'lim maktabining "Lochin" jamoasi 2-o'ringa loyiq deb topildi. Musobaqanining mutlaq g'olibiga Qonliko'l tumani 2-umumta'lim maktabining "Lochin" jamoasi aylandi.

Taqdirlash marosimida g'olib va sovindorlar tashkilotchilar tomonidan kubok, medal, diplom, faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan mukofotlandi.

**Alijon BOYMURATOV,
Nukus davlat universiteti
talabasi**

Jasorat maktabi

VATANPARVARLIK tarbiyasi



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga qarashli Nuriston qo'rg'onida joylashgan harbiy qismida 10 kunlik "Jasorat maktabi" harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'inining yopilish marosimi bo'lib o'tdi.

Unda okrug qo'mondonligi, kuch tuzilmalari vakillari, biriktirilgan davlat va jamoat tashkilotlari, yoshlar va harbiy xizmatchilar ishtirok etdi.

Orta qolgan 10 kun davomida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalashga, yangi kasb-hunarga o'qitishga hamda jamiyat uchun kerakli kadrlar bo'lib yetishishiga alohida e'tibor qaratildi. Yig'in ishtirokchilari uchun dastlab Qarshi harbiy gospitalining malakali mutaxassislari tomonidan tibbiy tekshiruvlar o'tkazilib, harbiy liboslar berildi. Qatnashchilar ichki tartib-intizom, harbiycha yurish-turish hamda mashg'ulot jadvali bilan tanishтирilib, ularga malakali ofitser va serjantlar biriktirildi.

Shu bilan birga, "Jasorat maktabi" qatnashchilari uchun ma'naviy-ma'rifiy darslar, biznes saboqlari, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari, psixologik va motivatsion treninglar tashkil qilindi. Bu yerga kelgan har bir yoshning orzu istaklarini, muammolarini aniq o'rganish maqsadida uch avlod hamda qo'mondon va yoshlар uchrashuvlari kabi bir qator ochiq suhbatlari ham o'tkazildi.

Ishtirokchilar harbiy qismda nafaqat jismonian chiniqdi, balki harbiy estafeta musobaqlari hamda "Zakovat" intellektual o'yinlarida bevosita ishtirok etib, yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ldi.

Jasorat maktabining so'nggi kunida har bir yoshning yuz-ko'zidan, tashkilotchilarga

berayotgan savollaridan Vatanga bo'lgan muhabbat hissini oshganiga va endilikda hayotga boshqacha nigoh bilan qarayotganlarini bilish mumkin.

"Jasorat maktabi" o'quv yig'ini yakuni munosabati bilan tantanali tadbir tashkil etilib, faol ishtirok etgan, o'zini har tomonlama ko'rsatgan yoshlarga qimmatbaho sovg'alar hamda sertifikatlar topshirildi.

Muxtasar aytganda, ortda qolgan 10 kun yoshlar uchun chin ma'noda vatanparvarlik va jasorat maktabi bo'ldi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug matbuot xizmati

Musobaqa



BILIM VA MATONAT SINOVI



Andijon garnizonidagi harbiy qismida mudofaa vaziri kubogi uchun tashkil etilgan "Vatanparvarlar" harbiy sport musobaqasining Andijon viloyati bosqichi o'tkazildi. Unda viloyatning barcha shahar va tumanlaridan saralab olingan iqtidorli o'quvchilar ishtirok etdi.

Musobaqada 10-11-sinflarda tahsil olayotgan "Vatan tayanchi" otryadlari a'zolari bilim, jismoniy tayyorgarlik, harbiy ko'nikma va jamoaviy muvofiglikda o'zaro bellashdi.

Musobaqa davomida o'quvchi-yoshlar "Bilimdonlar", "Vatan madhi", "Smart sardor", "Turnikda tortilish", "Press", "AK-74 avtomatini qismalarga ajratish va yig'ish", "Arqon tortish", "Merganlar bellashuvi", "Harbiylashtirilgan estafeta", "Jabrlanuvchiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish", "Safda q'shiq aytish" kabi shartlarda jamoaviy birdamligi, diqqatni jamlay olish va anqlik qobiliyati, jismoniy tayyorgarligi va chidamliligini sinovdan o'tkazdi. Har bir shartda o'quvchi-yoshlar fidoyilik, matonat va jamoaviy ruhda harakatlana olish ko'nikma va fazilatlarini namoyon etdi.

Yoshlardagi jismoniy va aqliy salohiyat, liderlik qobiliyati, tezkorlik kabi jihatlar mezon sifatida baholandi.

Qizg'in va murosasiz kechgan bahslar yakunida Marhamat tumani jamoasi faxrli 1-o'rinni egalladi. Asaka tumani jamoasi 2-o'rinni, Bo'ston tumani jamoasi esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

G'oliblar diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi hamda musobaqaning navbatdagi bosqichiga yo'llanma oldi.



Sharqiy harbiy okrug matbuot xizmati

Keling, kitob o'qiyimiz!

"Uchayotgan kipriklar"ga MAKTUB

So'zning quadrati oldida doim hayratda qolaveraman. Qachonki yangi kitob, yangi nomni kashf qilsam, "Toshkent siti"dan to'rt xonalı xonadon xarid qilgandek xursand bo'lib ketaman.

Ko'nglim nimadandir uzoq xomush tortadi. Odatda, bunday paytlar she'r yozaman, bu safar qo'limdan kelmadi. Matnazar Abdulhakim, Erkin Vohidov she'rлaridan biroz mutoalaa qildim, yuragimning hovuri bosilmadi.

Qalbimda ijara yashayotgan uyning derazasidan olis ufqqa termilib, tamaki tutatib, havosi buzilgan shaharning yarasiga tuz sepa boshladim. Samoni to'ldirib tizilib turgan yulduzlarga boqib, ikki misra she'r xayolimdan to'kila boshladi:

*"Bolalikni eslar onimda,
Bitta yulduz ko'zini qisdi,
Xuddi eski qadrdonimday".*

Ko'nglimda milt etgandek yorug'lik paydo bo'ldi, avvaliga muallifini eslay olmadim.

So'ng ichimdan nimadir Muhiddin aka, deb qichqirib yubordi. To'zg'ib yotgan kitoblar orasidan shosha-pisha akaning kitobini qidirishga tushdim.

"Uchayotgan kipriklar..."

Kitobni varaqlab ulgurmay, ko'zlarim kosasida bir tomchi yosh aylana boshladi. "Uchayotgan kipriklar" a? Shoир uchun she'r yozishdan ko'ra mashaqqatliroq bir hodisa kitobiga nom qo'yishdir, shoир esa vazifasini a'lo darajada bajargandi.

So'ng hafsalamni jamlab, bu mo'jaz olamning eshigini ochdim:

"Bolaligimda mabodo kiprigimiz to'ksila, onam: "Sog'ingan insoningni aytib, uchirib yubor", der edilar. Yuragimning to'kilgan kipriklarini – she'rлarimni sog'inganim So'zga va Sizga uchirdim", deya o'qirmanlarga taqdim qilingan bitiklarini hayajon bilan xatm etmoqni ixtiyor etdim. Shoир "Sizga" deya e'tirof etganida, meni ham nazarda tutganini yurak-yuragimdan his etib bo'lgandim!...

*"Ota,
mehnat degani
bemavrid abr ekan,
Qora sochlaringizga
hijjalab qor elabdi.
Ona,
zahmat degani
qip-qizil shoир ekan,
Qarang, peshonangizga
satrlar qoralabdi".*

Oh, deyman, shu kichik misralar ichiga ikki inson umrini sig'dirorgan shoирga. Onaning manglayidagi ajnlarni o'qiy olish uchun qalb ko'zlarimiz qanchalar ochilishi kerak, bu yoziqlarda qancha iztiroblar yashirin ekanini bilish uchun-chi? Bilmadim. Bu kichik jussasi bus-butun yurakdan iborat bo'lgan inson, hayotni "shoир" deb atagani bir muddat xayollarimni esankiratib qo'ydi. Bu beshafqat hayot qanchadan qancha insonlarning manglayiga o'z she'rлarini yozmagan deysiz!

Kitob sahifalarini birin-ketin varaqlayman, "Kitobxon" deya nomlangan she'mi uch qayta o'qidim.

*"Quchoqlab keldi-yu, bir qalin kitob,
Varaqlab-varaqlab
o'qiy boshladi.
Bir bet o'qidi-yu,
ko'zi ilinib,
uxladi,
ko'zini yumib qoshlari".*

Bir qarashda oddiy tuyulgan bu misralar yelkasiga qancha og'ir yukni ortib ketayotganini his qilganimda o'zimdan uyaldim. Kitobsiz, zangori ekranga termilib o'tayotgan umrimning sarhisobi ko'zimning oldidan o'tdi. Xona burchida saf tortib turgan kitoblar go'yo menga qarshi urush ochgandek, qilich yalang'ochlab turardi. Mulzam bo'ldim.

*"Nogoh, yuragimni ezadi nola,
Bo'g'zimni yirtadi bir nido, xitob.
Uxlamoq uchunmas,
uyg'onmoq uchun,
Qachon o'qiydilar odamlar kitob?"*



She'rni tugatar ekanman, uyquda o'tayotgan umrim uchun uyg'onish bongi urilgandek bo'ldi go'yo. Agar menga imkon berilganda, peshtaxtalgara qaysidir korxonaning reklamasini emas, mana shu she'rni yozib qo'yan bo'lardim. Yuraklarga uyg'oqlik urug'larini sochishdek vazifani yelkalab ketayotgan bu misralar har qalbda o'z o'mini topishi kerak axir.

*"Men odam emasman,
Men so'zman,
hamma o'qiy bilar bu so'zni.
Mabodo qiyalsa, o'qishga,
haqorat qilishar, paydar-pay.
Dunyoda hech kim yo'q
va yo'q hech nima,
Faqatgina so'zlar bor
yorug' dunyoda
Ko'rib turganiningiz,
daraxt, odam ham,
Hatto qumursqa ham
oddiyginga so'z.
Demak, men odamman,
Odam – so'z".*

Tangri avval qalamni yaratdi, so'zni yaratdi, yuqorida keltirilgan she'rda aytiganidek, onaning peshonasiga satrlar qoralagan ham shu qalam. Jamiki borliqni odam, hayvon, gul, daraxt, suv, havo deya nomladi. Qalamdan to'kilgan yoziqlar esa so'zga aylandi.

*"Dunyoda hech kim yo'q
va hech nima,
Faqatgina so'zlar bor".*

Insondon yaxshi nom qolsin ekan, hammamiz dunyodan o'tamiz. Abadiy ustun bo'lgan biror zog' yo'q. Inson faqat nomi, yodi bilan abadiyatga muhranaladi, so'zga aylanadi.

Shoир bu xulosani anchayin erta tushungan va bizga ham anglash uchun ishoralar bermoqda: "Odam – so'z", deya. Bu kitobda meni eng quvontirgan narsa – Muhiddin akam kitobni semirtirishga aslo urinmagan. Bo'sh qopni havo bilan to'ldirgandan qanday foyda bor? Baribir bo'shatilganda xaltaning o'zi qoladi xolos.

*"Yuragim eng so'nggi yaproqdek g'arib,
Tiriklik shamiday militirar havas.
"Sevasanmi?" deya nafas chiqarib,
"Sevaman", degancha olyapman nafas".*

Marjondek tizilgan bu go'zal yoziqlar meni o'ziga tobora tortib bordi, goh quvonib, goh tutdek to'kilib o'qiyotganim – bu qismat parchalari men uchun yana bir shoирni dunyoga keltirdi.

Oshiqning eng go'zal hasratlarini mana bunday ochib berish har qaysi shoирning ham qo'lidan kelavermaydi. "Sevaman", deya jar solayotgan har oshiqning dardi doim ham butun bo'lavermaydi.

*"Qorlar erib,
sovuoqlar ketib,
Vujudin tark etib
karaxtlik.
O'zini bir boshqacha tutib,
tili chiqib qoldi
daraxtning".*

Bahor kelishi, daraxtlarning kurtak ochib ko'klay boshlashini bunday go'zal ifoda etish – men tanigan ko'ksiga mushtlab yurgan shoirlarimizning ko'pchiligidagi uchramaydi.

*"...o'zini bir boshqacha tutib,
tili chiqib qoldi
daraxtning".*

Bahor nafasini tuygan daraxtlarning olamga viqor bilan boqishiga qachon ko'zi tushdi ekan deb, hayratim dashtlariga o't qo'yib yuborgan bu misralar va bahor haqida uzun xayollar domiga cho'mib qolaman.

"Tili chiqib qoldi daraxtning"

Ehh, deyman-u, labimni tishlagancha keyingi she'rga cho'k tushaman:

*"Ertakdag'i kalava misol
menga yo'l ko'rsatib borar yo'l.
Ketayapman yo'lning izmida".
Umrimiz bir yo'ldir!
Yo'ldan chiqib ham yo'lga tutilamiz.*

Taqdir izmidagi hayotimizni nechog'li to'g'ri yo xatoligini o'zimiz hech qachon anglamaymiz. Shoир ham bir yo'lovchiman, deya pichiraydi. Xato yo'l ham yo'l ekanini unutmaydi. Men adashdim, to'g'ri yo'limdan chiqib ketdim, deya uzundan uzun pushaymonlar bitib, qog'ozni isrof qilmaydi.

Ketyapmaan taqdir izmida, deya yo'lida davom etadi. Tilardimki, shoирning ijod yo'llari doim yorug' va ravon bo'lsin!

Jiyanim Zilola xotirasiga

*"Eski bir hovuz edi,
ising eshitib,
Zilol bo'lgisi keldi".*

*"Fig'onimdan kuydi olam,
Seni yerga ekdim, bolam.
So'ng sug'ordim to'kib jolam,
Ko'kar, maysam! Ko'kar, maysam!
Tor yelkamda ming bir dardim,
Lek shu dardni dast ko'tardim.
Alamimdan men ko'kardim,
Xo'sh, sen nega ko'karmaysan.
Ko'kar, maysam! Ko'kar, maysam!"*

Bu she'rлar haqida esa men og'iz juftlab nimalardir deyishga ojizman.

Shuni aytishim mumkinki, bu misralar dard-u hasratning tirik ko'rinishidir.

Kitobni o'qib tugatar ekanman, bir narsani tushunib yetdimki, baxti, armoni bir bo'lgan zamondosh ijodkorlar bizga ko'proq yaqinroq bo'lar ekan. Sen bilan bir havodan nafas olib, seni qynagan og'riqlar bilan og'rishning o'zi o'rtadagi chegaralarini olib tashlaydi. Muhiddin aka – asl shoир, dilida ozgina yomonligi bo'lgan inson so'z qoshida mardonovor tura olmaydi. Agar bu kitobga men nimadir deyishga haqli bo'lsam, "Iztirobning lirikasi" deya nomlagan bo'lardim.

"Uchayotgan kipriklar" – bu kitob haqida juda uzoq so'zlashim mumkin.

Men hozir yana takrorlayversam, butun boshli kitobni ko'chirib qo'yishimga to'g'ri keladi.

Muhiddin aka, "Uchayotgan kipriklar" o'z xizmat vazifasini bajardi. Yuragingizdan to'kilgan baxt-u armonlaringiz bir tolibingizning ko'ngil aeroportiga kelib qo'ndi. Har ko'ngilda siz uchirgan go'zal she'rлar o'z o'mini topmog'ini tilayman.

Sizga ulkan hurmat bilan

**Muhammadali G'AFFOROV,
"Vatanparvar"**

Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi!



JANGGOHLARDA ULG'AYGAN O'ZBEK QIZI

Katta muhoraba janggohlarida bo'lgan o'zbek ayoli bilan hech suhbatlashganmisiz? Olov qa'rida kechgan dardli xotiralariga sherik bo'lib, ko'ksidagi og'riqli armonlarni his etganmisiz? Ha, biz momolarimizdan urush yillarida xalq boshiga tushgan azob-u uqubatlar, ocharchilik-u qahatchiliklar haqida ko'p eshitganmiz. Ularning biz uchun ertaknamo bo'lgan xotiralarini bolalik shuurimiz ila dilga muhrlaganmiz. Ammo ayni navqiron yoshda urushga otlangan, yoslik umri janggohlarda kechgan o'zbek ayoli bilan urush xotiralariga singimoq barchaga ham nasib etmagani aniq. Uning dardiga ro'baro' bo'lmoq esa sizdan bir qadar matonat talab etadi.

2016-yili xizmat safari bilan Buxoro shahrida bo'lganimda Ikkinci jahon urushi ishtirokchisi kichik serjant Nazira Tairova haqida eshitib, 93 yoshli onaxonning istiqboliga shoshildim, suhbatlaridan bahramand bo'ldim. O'n sakkiz yoshida frontga otlanib, o'n yil navqiron umri urushga qurbon qilingan o'zbek qizining xotiralarini yuragimdan unutilmas joy egalladi. Bu gal esa ya'ni oradan to'qqiz yil o'tib, onaxonning farzandlari Tohir aka va Roziya opa bilan Nazira onaxonimizni xotirladik.

Ayrliqning azobli yillari

1930-yil. Yetti yoshli Nazira, uch yoshli Ruqiyani bolalar uyiga kelganiga bir haftadan oshdi.

Qizaloqlar har kuni yetimxona darvozasiga termilib ota-onalarini kutishadi. Ularning murg'ak qalbi otalari Mirjalol aka, onalari Bahshanda opadan bevaqt ayrilganini hamon anglab yetgani yo'q. O'lim degan ayrliq azobini tushunib yetganlarida esa ularning nozik qalbi qay darajada o'rtanganini anglamoq mushkul. Ayrilik dardiga yelka tutgan nozik vujudlar, sog'inch, iztirob, armon... Yetimlikka mahkum etilgan bolalik onlari, achchiq ko'z yoshlar. Bir-biriga tayanch bo'lib, hayot sinovlarini yengib, yashashga kuch topgan o'ksik dillar...

1941 - yil. Nazira 18 yoshga to'ldi. Buxoro pedagogika texnikumiga o'qishga kirgan go'zal

qizning orzulari o'zi yanglig' go'zal va beg'ubor. Biroq bu orzularga fashizm balosi atalmish ofat chang solishi uning xayoliga ham kelmagan. Ko'p o'tmay, bu achchiq haqiqat bo'y ko'rsatib ulgurdi. Ikkinci jahon urushining olovina'rasi boshqa mamlakatlardan qatorida yurtimiz ahlini ham larzaga soldi.

Buxoro shahri mudofaa ishlari boshqarmasi erkaklar bilan gavjum. Ularning qatorida noziknihol Nazira ham bor.

- Nazira Tairova, mana, 18 yoshga to'libsan. Ota-onangdan yetim qolganingda davlat seni boqdi, ulg'aytirdi, bilim berdi. Buni qaytarish navbatni endi senga keldi. Urushga borib, burchingni bajarishga tayyormisan?

- Qo'llimdan kelganicha xizmat qilishga tayyorman! Faqat mening kasbim... - harbiy libosdag'i salobatlari boshqarma boshlig'i oldida hayajonlanib turgan qizning so'zini uning qat'iy buyrug'i bo'ldi.

- Kerakli sohaga o'zimiz tayyorlaymiz, ertaga xizmatga jo'naysan!

Ma'lum vaqt Toshkentda aloqa yo'nalishida tahsil olgan Nazira harbiy eshelonda frontga yo'l oldi.

Aslida bu zalvarli yerkaklar ilkiga yuklatilgan. Qonli janggohlarda erkaklar bilan bir safda bo'lish, yonginasida jon taslim etgan safdoshining qonli jasadi ustida borliqni unutish, chidab bo'lmas qahraton-u ochin-to'qinlikka qaramay, faqat oldinga intilish, razvedka jarayonida parashyut bilan sakrash, har qadamda o'lim bilan ro'baro' bo'lish... Nazira opaga bu kabi xotiralar hayotining so'ngiga qadar umrsherik bo'lgani aniq.

Hayotning ulug' siylovi

Xalqimizda yetimning yori Alloh, degan purma'n naql bor. Nazira urush suronlarda kechgan eng og'ir damlarda ota-onasi bilan o'tkazgan bolalikning shirin xotiralar, bolalar uyida qolgan yolg'izgina singlisining sog'inch taftiga suyandi. Janggohlarda ko'p bora fano farishtasi uni chetlab o'tdi. Buxorodek shahri azimda tug'ilgan qizni ulug' ajododdarning ruhi qo'llab turgan bo'lsa, ajabmas.

1945-yili nihoyat, fashizm balosi parchalanib, g'alaba tug'i ko'tarildi. Ammo kichik serjant Nazira Tairova kabi sinovlarda toblangan, tajribali aloqachilar hamon xizmatda. Ular ko'plab davlatlarni qamrab olgan Ikkinci jahon urushi olovini o'chirishga safarbar etilgan. Biroq Naziranai Mongoliya hududida qattiq tobi qochdi va ortga qaytarildi. Lekin ona yurtiga qaytishiga izn berilmadi, xizmatda qoldi. Singlisi Ruqiyaning iltimosi bilangina, 1951-yili ko'ksi to'la orden va medallar bilan Buxoroga qaytish nasib etdi. Janggohlarda ulg'aygan qizni hayotning ulug' siyolvari kutmoqda edi. U ham boshqa qizlar qatori sevidi, sevildi. 1953-yili o'zi kabi bolalar uyida ulg'aygan Samad Shokirov bilan oila quydidi.

Rahimaxon, Roziyaxon, Tohirjon, Bahodirjon, Botirjon oilani birin-ketin to'ldirgan besh farzand bolalik chog'laridanoq yaqinlaridan ayrilgan bag'rikuyik ikki insonning baxt quvonchiga aylandi. Ota-onaning tarbiyasi, mehr-u muhabbati ostida ulg'aygan bir-biridan aqlli va zukko, bilmidon farzandlar turli sohalarda o'rin topib, yetuk insonlar safiga qo'shildi. Shifokor, iqtisodchi, muhandis, haydovchi. Ular ota-onalari kabi yurt xizmatida bo'ldi. 2017-yili 94 yoshida bu dunyoni tark etgan Nazira aya esa umrining oxiriga qadar el-yurt e'tiborida umrguzaronlik qildi.

Nazira ayaning ko'ksini to'ldirib turgan orden va medallar hamon ko'z oldimda. "Jasorati uchun", "Qahramonligi uchun" hamda g'alabaning yubiley sanalarida berilgan orden va medallar, 1994-yili taqdim etilgan "Jasorat" va "Shuhrat" medallari, "G'alabaning 60 yilligi", "G'alabaning 70 yilligi" yubiley medallari To'maris avlodni bo'lgan o'zbek ayoli xizmatiga berilgan yuksak e'tibor va e'tirofdir.

Ikkinci jahon urushi qatnashchisi kichik serjant Nazira Tairova haqida so'z yuritar ekanman, bir haqiqatni teran his qilaman. Yillar o'taveradi, ona yurtimiz charog'on kunlarga yuz tutaveradi, millatimiz hayotida kechgan moziyining og'riqli yillari ortga chekinaveradi. Biroq Nazira aya singari zabardast insonlarning umr yo'li tarix sahifalariga muhrlanib, o'zbek qizining jasorati, matonati avlodlar uchun ibrat maktobi sifatida saqlanib qoladi.

**Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"**

yoshda ham qandaydir yumush bilan band bo'lgilari kelardi. Ular hamma havas qiladigan, duolarini olishga intiladigan pir-u badavlat onaxon edi. Nafaqat biz, farzandlar, balki 14 nabira va 25 evara ular bilan faxrlanadi. Nabiralarining deyarli barchasi oliy ma'lumotli, nufuzli sohalarda faoliyat yuritadi. Eng asosiyisi, ular duogo'y buvijonlarini unutmайдар, о'ғит ва насиҳатларини ҳамиса ўнда сақлашади. Бир со'з билан айтгандаги, онамнинг ҳайоти, сабр-у қаноати, айоллик ша'ни ва г'урурни бизга ҳар томонлама о'rnak. Xotiralari esa азиз ва қадрлидир.

E'tirof, ardoq va e'zozda kechgan umr

Nazira aya o'zbek ayolining sabr-bardoshli, oqila, mehnatkash vakilasi sifatida davlatimiz g'amxo'rligi ostida e'tibor va e'zozda yashab o'tdi. Onaxon Ikkinci jahon urushi qatnashchisi sifatida davlat va jamoat tashkilotlarida, ayniqsa ta'lim dargohlarida bo'lib o'tadigan tadbirlarda ishtiroy etib, urush voqealari, tinchlikning qadriga yetish, hurlikni asrash kabi suhbatlaridan yoshlarni bahramand etardi. Ularning hayot yo'li yoshlarga ҳар томонлама ibrat edi.

Nazira ayaning huzurida bo'lganim hamon yodimda. Boshlarida o'zbekona oq ro'mol, 93 yoshda ham qosh-ko'zları qora, nuroni yeherasida nim tabassum, mehmonlarga bag'riochiq, fikrlari tiniq, suhbatlari maroqli. Ayol necha yoshda bo'lmasin, hamisha go'zallikka oshno deganlaridek, ularga taqdim etilgan gullarga ko'zları quvnab termilar ekan, e'zoz va ehtirom uchun duoga qo'l ochdi. El-u yurtga, ularni yo'qlovchilarga ezgu niyatlar bildirdi. Janggohdag'i xotiralarga to'xtalib o'tdi:

- Hayotimdag'i o'tgan kunlar, urush voqealari haqida gapirsam kecha-yu kunduz yetmaydi. Urush ofatini, ayrliqning azob-uqubatlarini biz ko'rdik, ilohim farzandlarimiz, avlodlarimiz ko'rmasim. Bunday dorilamon kunlarning qadriga yetish, asrash lozim. Men kechgan hayotimdan mamnunman. Chunki davlatimiz va farzandlarim ardog'idaman. Urushda kechgan yillar esa yuragimda yashaydi...

Nazira ayaning ko'ksini to'ldirib turgan orden va medallar hamon ko'z oldimda. "Jasorati uchun", "Qahramonligi uchun" hamda g'alabaning yubiley sanalarida berilgan orden va medallar, 1994-yili taqdim etilgan "Jasorat" va "Shuhrat" medallari, "G'alabaning 60 yilligi", "G'alabaning 70 yilligi" yubiley medallari To'maris avlodni bo'lgan o'zbek ayoli xizmatiga berilgan yuksak e'tibor va e'tirofdir.

Ikkinci jahon urushi qatnashchisi kichik serjant Nazira Tairova haqida so'z yuritar ekanman, bir haqiqatni teran his qilaman. Yillar o'taveradi, ona yurtimiz charog'on kunlarga yuz tutaveradi, millatimiz hayotida kechgan moziyining og'riqli yillari ortga chekinaveradi. Biroq Nazira aya singari zabardast insonlarning umr yo'li tarix sahifalariga muhrlanib, o'zbek qizining jasorati, matonati avlodlar uchun ibrat maktobi sifatida saqlanib qoladi.

Muloqot

Yangi O'zbekistonda yosh avlodni barkamol inson sifatida tarbiyalash, mustaqil hayotga qadam qo'yishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish yo'lida tizimli ishlar amalga oshirilmogdaki, bu o'z navbatida, jonajon Vatanimizning har jihatdan salohiyatlari, vatanparvar, fidoyi farzandlari safi yildan yilga kengayishini ta'minlaydi.



GENERAL VA YOSHLAR UCHRASHUVI

Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasida yoshlarni vatanparvarlik, ona yurtga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ustozlar hayot mifiktabini yanada chuqurroq biliш va o'rganish maqsadida general va yoshlarni uchrashuvi tashkil etildi.

Unda Favqulodda vaziyatlar vazirligi faxriylari general-polkovnik Qobul Berdiyev, general-major Ravshan Xaydarov, O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jamoatchilik markazi raisi III darajali davlat adliya maslahatchisi Botir Kalonov,

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi kafedra boshlig'i III darajali davlat adliya maslahatchisi Shuxrat Uzakov, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi professorlari – III darajali davlat adliya maslahatchilar Baxtiyor Po'latov, Faxri Rahimov, akademiya professor-o'qituvchilar, harbiy xizmatchilar va kursantlar ishtirok etdi.

Tadbirni akademiya boshlig'i yuridik fanlari doktori, professor, polkovnik Muzaffar Mamasiddiqov olib, harbiy sohada uzoq yillarda xizmat qilgan yoshi ulug' ustoz generallarni hayoti va

mehnat faoliyati davomida to'plagan boy tajribasi, yoshlilik davridagi o'ziga xos qiyinchiliklari, mehnat pallasidagi mashaqqatlari haqida samimiy fikrlarini bildirdi. Shuningdek, u mamlakatimizda yoshlarning iqtidorini namoyon etish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, harbiy kasbning nufuzi va mas'uliyati xususida to'xtaldi.

So'z olganlar yoshlarni bilan bo'ladigan har qanday uchrashuv va muloqotlardan cheksiz kuch-quvvat va ko'tarinki ruh olishlarni alohida ta'kidladi.

Tadbirda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan jamiyatimizning har bir a'zosiga, ayniqsa yoshlarga g'amxo'rlik, mehr-oqibat ko'rsatilayotgani, orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarishga imkoniyat yaratib berish ustuvor vazifaga aylangani e'tirof etildi. Yoshlarimiz bugungi kunda yaratib berilayotgan ulkan sharoitlardan unumli foydalangan holda, Vatanimiz ravnqaiga munosib hissa qo'shib, kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxassislari bo'lishi ta'kidlandi.

Uchrashuv davomida general-polkovnik Qobul Berdiyevni qutlug' 70 yosh yubileyi munosabati bilan Mudofaa vazirligi, akademiya rahbariyatining tabrik va esdalik sovg'alari topshirildi.

– Ustozlar o'z tajribalaridan so'zlab bergen hayotiy saboqlar, chunonchi qalblarida jo'sh urgan vatanparvarlik tuyg'usi har qanday mashaqqatlari vaziyatda ularga kuch va shijoat bergani, xalqimiz oldidagi farzandlik burchi esa doimo o'z vazifalariga fidoyilik va mas'uliyat bilan yondashishga undagani ishtiroychilar, ayniqsa yoshlardagi Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat hissini yanada to'linlantirib yubordi, – deydi kapitan Firdavs Karimov.

Uchrashuv yakunida generallar akademiyaning "Faxriy mehmonlar" kitobiga o'zlarining ezgu niyatlarini, o'gitlarini esdalik sifatida yozib qoldirdi.

**Mayor Farhodjon XOJAYEV,
Favqulodda vaziyatlar vazirligi
akademiyasi katta o'qituvchisi**

Xotira aziz



MEHNATDA O'TGAN UMR

Mamlakatimizda ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaga hissa qo'shgan urush va mehnat faxriylariga, shuningdek mustaqillik yillarda xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini ulug'lash oliyanob qadriyatga aylangan.

Vatanimiz tarixida o'zining jasorati, mehnatsevarligi va sadoqati bilan unutilmas iz qoldirgan insonlardan biri – bu Allam Matkarimov. U 1922-yilda Xorazm viloyati, Gurlan tumani, Vazir qishlog'ida tavallud topgan. Yoshlik yillardanoq mehnatsevar, halol va fidoyi inson sifatida tanilgan.

Ikkinci jahon urushi xalqimiz hayotiga ulkan sinovlar olib kelgan. Fashizm ustidan qozonilgan g'alaba yo'lida o'zbekistonliklar, jumladan xorazmliklar ham jonbozlik bilan qatnashdi. Tarixiy manbalarga ko'ra, Xorazm viloyatidan 9 791 nafar inson urushga safarbar etilgan. Ular orasida Allam Matkarimov ham bor edi.

Urushdan keyin 1947-yildan boshlab, u Gurlan tumanidagi kolxozda samarali mehnat qilgan. Allam Matkarimov oddiy kolxozchidan boshlab, brigadir darajasiga qadar ko'tarilgan. U mehnatsevarligi va tashkiliy salohiyati tufayli ko'plab yutuqlarga erishgan va mukofotlar bilan taqdirlangan.

Allam Matkarimov nafaqat mehnatda, balki oilaviy hayotda ham namunali inson bo'lgan. U 10 nafar farzandni voyaga yetkazgan, ularni halol mehnat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalagan. Bu jihatdan ham u munosib ota, fidoyi inson sifatida esda qolgan. U 2004-yilda Gurlan tumanida Vazir qishlog'ida 82 yoshida vafot etgan.

Bugun Allam Matkarimovning hayoti va ibratli faoliyati nafaqat o'z avlodlari, balki barcha yurtdoshlarimiz uchun o'rnak bo'lib xizmat qilmoqda.

**Mira BEKCHANOVA,
Jamoat xavfsizligi universiteti
o'qituvchisi, (PhD)**

Daxldorlik masalasi

Yoshlarda vatanparvarlik



Barcha davrlarda oilada bola tarbiyasi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda oilaning roli beqiyosdir. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida bo'layotgan tub o'zgarishlar oilada bola tarbiyasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kelajagi buyuk davlatlarning barpo etilishi, asosan yoshlarning qanday tarbiya olishiga bog'liq. A. Avloniy aytganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir".

Vatan ostonadan boshlanadi, degan ibora bejiz aytilmagan. Vatanni sevish esa ota-onani sevishdir. Ota-onaning bolaga bo'lgan mehr-muhabbati Vatanga bo'lgan muhabbat bilan yo'g'riliши zarur. Oila va oilaviy munosabatlarga yondashish, bolalarda o'zaro hamjihatlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, el-yurtga muhabbat, ota-onani qadrlash kabi tushunchalarni singdirish zarur.

Bolalarda Vatanga va ona yurtga bo'lgan muhabbatni o'stirishga olib keladigan dastlabki saboqlar oilada berilishi kerak. Ota-onalar, ajodolarimizning ona Vatanga mehr-muhabbatini va uning yo'lida qilingan qahramonliklarini misol tariqasida so'zlab berishlari muhimdir. Bunday tarbiya, bolalarga o'z tarixini, madaniyatini va an'analarini o'rganishga yordam beradi. **Yoshlar ongida vatanparvarlik**

HISSINI SHAKLLANTIRISH – DAVR TALABI

tuyg'usini yuksaltirish, kuchli jamiyat barpo etishda muhim ahamiyatga ega. Bu fuqarolik mas'uliyatini tarbiyalaydi, jamiyat hamjihatligini ta'minlaydi va millat taraqqiyoti yo'lida faol ishtirok etishga undaydi.

Yoshlarga vatanparvarlik tuyg'usining ahamiyatini anglashda ularga ibrat bo'lish zarur. Kattalar millatga, uning institutlariga hurmat ko'rsatish orqali yosh avlodni o'z mamlakatini qadrlashga ilhomlantirishi mumkin. Umuman olganda, yoshlarda vatanparvarlikni tarbiyalash oilalar, maktablar, mahallalar va davlat muassasalarining birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi.

MILLIY VATANPARVARLIK, o'zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan imyon, mehr-muhabbat va sadoqat kabi axloqiy-ma'naviy qadriyatlарига yig'indisidir. Ta'lim muassasalarida ham vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish ta'limning asosiy mazmunini tashkil etadi. O'zbekistonning davlat ramzları, milliy tarix va madaniyat, o'zbek tili va Konstitutsiya kabi tushunchalar, madaniy-ma'rifiy faoliyatda o'z aksini topadi.

O'zbek xalqi o'z milliyligi, mehr-oqibat, urf-odatlari va mehnatsevarligi bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Barkamol avlod tarbiyasi, uning kamolotiga oid masalalarni o'zida mujassam etadi.

Barkamol shaxs tarbiyasida vatanparvarlik, insonparvarlik,

mehnatsevarlik kabi fazilatlar muhim ahamiyatga ega.

YOSHLARNI TARBIYALASHDA barcha umumta'lim maktablari zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijodiy intilishni vujudga keltirishga asosiy omil hisoblanadi. Ilg'or g'oyalarni zamonaviy ruhda tushuntirish o'g'il-qizlarni tarbiyalash uchun boy manba bo'lib xizmat qiladi. Vatanparvarlik tushunchasi ko'pincha harbiy faoliyatga nisbatan ishlatsilsa-da, bu tuyg'uni barcha faoliyat doirasida ko'rish maqsadga muvofigdir.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi **yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan sa'y-harakatlar, bugungi kunda eng muhim vazifalardan biridir**. Globallashayotgan dunyoda yoshlar ongiga salbiy ta'sir etayotgan ommaviy madaniyat unsurlarining milliy mafkuramizga suqilib kirishi va axborot texnologiyalari xatarlarining kuchayishi sababli yoshlarning baxtli kelajagini ko'zlab, qo'shimcha choralar ko'rish muhimdir.

Shunday qilib, yoshlar tarbiyasida vatanparvarlik hissini shakllantirish, faqtigina tarbiyachilar va o'qituvchilar emas, balki har birimizning vazifamizdir.

**Mamadoli ISAQULOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
katta o'qituvchisi, PhD**

Armiya va yoshlar

YOSHLAR BILAN ISHLASH NATIJADORLIGI OSHIRILMOQDA



So'nggi yillarda mamlakatimizda yosh avlod kamoloti, salomatligi, ularning ilm olishi, kasb-hunar egallashi va vatanparvar, ertangi kun uchun munosib voris bo'lib ulg'ayishiga katta ahamiyat berilib, bu jarayon davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bir so'z bilan ifoda etganda, Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandı.



Davlatimiz rahbari raisligida joriy yilning 14-fevral kuni yoshlar bilan ishlash natijadorligini yanada oshirish choratadbirlari to'g'risida yoshlar bilan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida, o'g'il-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qancha muhim masalalar muhokama qilindi. Ertamiz egalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ong-u shuurini ezgu maqsadlar sari yo'naltirib, kasb-hunar egallashi, jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish borasida qator imtiyoz va imkoniyatlar berildi.

Albatta, bu borada harbiylar bilan aholining, ayniqsa yoshlarining hamkorligi juda yaxshi natijalarni berayotgani hech kimga sir emas. Chunki bunday hamkorlik jamiyatda yoshlarning milliy o'zlik va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalishini hamda ularning faol ijtimoiy pozitsiyaga ega bo'lishini

ta'minlashga xizmat qilmoqda. Jumladan, Surxondaryo viloyatida ham kuch tuzilmalari bilan birgalikda mazkur yo'nalish bo'yicha manzilli, amaliy ishlars olib borilmoqda.

Mazkur tadbirlar doirasida "Armiya va xalq – bir tan-u, bir jon!" shiori ostida o'tkazilayotgan tadbirlar harbiy qismlar va jamoatchilik o'rtaqsidagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, harbiy qismlarning umumiyo'rtalim maktablariga biriktirilishi va maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining keng miqyosda o'tkazilishi yoshlarning harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishini yanada oshirishda katta rol o'yamoqda.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV
Termiz garnizoni**

DO'STLIK VA ISHONCH NIHOLLARI

O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi oldidagi Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanining hududida yashil bog' barpo etiladi. Yangi bog' uchun mazkur hududdan 15 hektar maydon ajratilgan bo'lib, bu yerga 10 ming tup ko'chat ekish rejalashtirilgan.

Alovida ishlov berilgan bu hududda Sharqiy harbiy okrug harbiy xizmatchilari hamkor tashkilotlar vakillari bilan birgalikda daraxt ko'chatlari ekish ishlarini boshlab yuborgan.

Joriy yilning 31-mart kuni davlat rahbarlari tomonidan O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi tarixiy shartnoma imzolandi. Xo'jand shahrida o'tkazilgan oly darajadagi tadbirlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadr Japarov uch mamlakat chegaralari tutashgan hududda "Do'stlik" stelasini tantanali ravishda ochdi.

Ushbu bog' ham mazkur yodgorlik bilan hamohang ravishda qardosh



mamlakatlarimiz o'rtaсидаги do'stlik, yaxshi qo'shnichilik, ishondi va strategik sherlikli munosabatlari mustahkamlanib borayotganining yangi ramzi bo'ladi. Farg'ona viloyati hududida barpo etiladigan yashil bog' yaqin yillarda ichida yashillikka burkangan, obod va xushmanzara joyga aylanadi.



Bunyodkorlik

JASORAT RUHINI UYG'OTUVCHI MASKAN

Sharqiy harbiy okrug Farg'ona garnizonidagi harbiy qism hududida "Jasorat maktabi" loyihasi uchun zamonaviy o'quv binosi va yotoqxona, shuningdek "Farg'ona" dala-o'quv maydonida harbiy xizmatchilar uchun mo'ljallangan yangi oshxona foydalanishiga topshirildi.



Mazkur binolarning ochilish marosimiga bag'ishlangan tantanali tadbirda Sharqiy harbiy okrug qo'shnirlari qo'mondoni general-major Aybek Saidov, Farg'ona viloyati hokimi, harbiy-ma'muriy sektor rahbari Xayrullo Bozorov, harbiy xizmatchilar, faxriylar

hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirot etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar haqida fikr yuritib, navqiron avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhidat tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor

yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidladi. Darhaqiqat, "Jasorat maktabi" harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'inlarini o'tkazish uchun bu yerda yaratilgan shart-sharoitlar yoshlarni jismonan chiniqtirish, ularning ongida Vatanga muhabbat, fidoyilik, mas'uliyat kabi

fazilatlarni shakllantirishda muhim o'rinn tutadi.

Yangi foydalanishga topshirilgan o'quv binoning birinchi qavatida 100 o'rinci sinfxona, ikkinchi qavatida esa yotoqxona va maishiy xizmat xonalari tashkil etilgan. Bu infratuzilma "Jasorat maktabi"

doirasida o'tkaziladigan harbiy o'quv yig'inlarining sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, "Farg'ona" dala-o'quv maydonida zamon talabari asosida barpo etilib, foydalanishga topshirilgan oshxona endilikda yurt o'londi uchun katta qulaylik yaratadi.

Ijtimoiy himoya

Salomatlik – insonning jismoniy va ma'nnaviy xususiyatlarining yig'indisi. Zero bejiz dono xalqimiz "Sog'lom tanda – sog' aql" deyishmagan. Shuning uchun ham harbiy xizmatchining o'zi va oilasining tinchligi, salomatligini ta'minlash davlatimizning ustuvor maqsadlaridan biri bo'lib kelmoqda.



CHUQURLASHTIRILGAN TIBBIY KO'RIK



Termiz harbiy gospitalida Sog'liqni saqlash vazirligi, Markaziy harbiy klinik gospitali hamkorligida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun tashkil etilgan chuqurlashtirilgan tibbiy

ko'rrik ham ana shu ezgu maqsadga xizmat qildi.

Tibbiy ko'rrik asosan, onkologik kasalliklarning oldini olishga qaratildi. Shu bilan birga, jarayonda okulist, pediatr, mammolog,

travmatolog, terapevt, onkoginekolog, dermatolog, stomatolog, oftalmolog, lor, nevrolog, endokrinolog kabi yo'nalishlarda shifokorlar ko'rigi, UTT va EKG tekshiruvlari o'tkazildi. Shu kuni ayollar ishtirotida "Xotin-qizlar reproduktiv salomatligi – sog'lom kelajak asosi!" mavzusida profilaktik suhabatlar ham tashkil etildi.

Ta'kidlash joizki, o'tkazilayotgan bu kabi tadbirlar yurt himoyachilarining oila a'zolari o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish bilan bir qatorda, mayjud kasalliklarni barvaqt aniqlash va davolash, shu orqali xastaliklarning

surunkali holatga o'tib ketishining oldini olishi bilan qimmatlidir.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni

Ma'naviyat

Vatanni QO'RIQLAR YIGITNING mARDI

Qurolli Kuchlar akademiyasi o'quv jarayonini ta'minlash bazasida "Vatanni qo'riqlar yigitning mardi" mavzusida ma'nnaviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.



Unda Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda faxriylar ishlari bo'yicha Toshkent viloyati kengashi, Chirchiq shahri "Nuroni" jamg'armasi a'zolari va muddatli harbiy xizmatga yangi chaqirilgan askarlar ishtirot etdi.

Tadbirda so'z organlar harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini



oshirishda ma'nnaviyatning o'rni, yurtimizda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlар, xalq va armiya bidadmiliyo yo'lida olib borilayotgan ishlar yuzasidan fikr yuritdi.

Haqiqatan, milliy armiyamizda yurt o'g'lonlari harbiy sohani puxta egallah bilan bir vaqtida, jismoniy va ma'nnaviy jihatdan chiniqib, irodasi toblanib, hayotiy qarashlari shakllanib, Vatan himoyasiga doim tayyor, mard va jasur insonlar bo'lib yetishib chiqmoqda.

Tadbir davomida shoirlar tomonidan ijro etilgan she'rlar, "O'zbekkonsert" davlat

muassasasi Chirchiq shahar bo'limi hamda Chirchiq garnizoni ma'nnaviyat va ma'rifikat markazi ansamblsi san'atkolarining kuy-qo'shiqlari ishtirotchilarda katta taassurot qoldirdi.

Bu kabi ma'nnaviy uchrashuvlarning o'tkazilishi harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirishi, "Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!" degan ezgu g'oyani amaldagi ro'yobi hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhidha tarbiyalashi bilan ham ahamiyatlidir.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"**

Askar bo'lar yigitning mardi

Kasblar festivali

O'G'LONLAR MASHG'ULOTLARDA TOBLANMOQDA

Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonligi mas'ul ofitserlari, harbiy psixolog Vatan oldidagi muqaddas va sharaflı burchini bajarish uchun kelgan muddatli harbiy xizmatchilar bilan suhbat o'tkazdi.



O'g'lolar orasida Toshkent davlat texnika universiteti bitiruvchisi Humoyun Xolmurodovlar ham bor. U yigitlik burchini ado etish uchun hayot maktabida toblanib, kelgusi faoliyatini armiya saflarida davom ettirishni maqsad qilgan. Humoyun singari mazkur sohadagi zarur ko'nikmalarni egallab, taqdirini sharaflı kasbga bog'lashni niyat qilgan azamatlar talaygina. Mutaxassislar suhbat asnosida askarlarga bukilmas iroda va matonat tilab, kerakli tavsiyalarni berdi.

Ayni paytda jasur o'g'lolar bilan bir oylik yig'in mashg'uloti o'tkazilmoqda. Yig'inga biriktirilgan malakali ofitser va serjantlar endigina armiya hayotiga kirib kelgan chaqiriluvchilarga harbiycha hayot tarziga tez va oson moslashishlari uchun ko'mak bermoqda. Shuningdek, ular Vatanga qasamyod tadbirlariga tadorik ko'rmoqda.

Chirchiq garnizonidagi harbiy qismda o'tkazilgan qo'mondon va yoshlar uchrashuvida muddatli harbiy xizmatchilar bilan birgalikda "Jasorat maktabi" o'quv yig'ini o'quvchilari ham ishtirok etdi. Unda Toshkent harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Zokirjon Sayfuddinov, Toshkent shahri hokimi o'rinosbasari Durdon Rahimova, viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi xodimlari mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor hamda yaratilayotgan imkoniyatlar xususida ma'lumot berib, yigit-qizlarning taklif va muammolarini tingladi, ular tomonidan berilgan savollarga atroflicha javob berdi.

Umuman olganda, egniga askarlik libosini kiygan muddatli harbiy xizmatchilarning har kuni sermazmun o'tib, faol va tashabbuskor yoshlarning harbiylikka, Vatanni himoya qilishga bo'lgan xohishi, hayotda o'z o'rnini topishga intilishi ortmoqda.

**Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati**

Kelajagimiz egalari

Qarshi harbiy prokuraturasi tomonidan shahardagi 1-sloni politexnikumda "Kasblar festivali" tashkil etildi.

Unda politexnikum jamoasi, umumta'lim maktablari o'quvchi-o'qituvchilari hamda harbiy xizmatchilarning oila a'zolari ishtirok etdi.

Tadborda hunarmandchilik namunalari, innovatsion va kreativ g'oyalar asosida yasalgan qo'l mehnati buyumlari namoyish etildi. Mutaxassislar tomonidan mavjud bo'sh ish o'rnlari, ishsizlarni kasbga o'qitish bo'yicha bepul o'quv kurslari haqida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi hamkorligida "Jasorat maktabi" o'quv yig'iniiga jaib etilgan yoshlar bilan uch avlod uchrashuvu o'tkazildi.

Ochiq va samimiy ruhda kechgan muloqotda faxriylar o'zlarining hayot yo'li, ish tajribasi va xizmat davomidagi xotiralari bilan o'rtoqlashdi.

**Adliya polkovnigi Shuhrat ZIROV,
Qarshi harbiy prokurorining
yordamchisi**

Sayyor qabul

Murojaatlar tinglandi

Yurtimizda aholining muammolarini joyda o'rganish, ularga tezkor va samarali yechim topish maqsadida olib borilayotgan sayyor qabullar so'nggi yillarda amaldagi islohotlarning muhim qismlaridan biriga aylandi.

Sayyor qabullar – fuqarolarni tinglash, ularning dardini eshitish va eng muhimi amaliy yordam ko'rsatishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

Xususan, Farg'ona harbiy prokuraturasi tomonidan Sharqiy harbiy okrugdagi harbiy qism va muassasalarda ommaviy sayyor qabullar o'tkazib kelinmoqda.

Ularning navbatdagisi viloyatning olis tumanlaridan biri Dang'arada tashkil etildi. Unda tashkilot va idoralardan jaib etilgan mutaxassislar

ishtirokida harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari tinglandi.

Jarayonda murojaatlarni joyida hal etishga alohida e'tibor qaratilib, yechimi vaqt talab etadiganlari nazoratga olindi.

**Adliya podpolkovnigi
Shukurjon TOSHMATOV,
Farg'ona harbiy prokurorining
katta yordamchisi**

Profilaktika

Korrupsiya – jamiyat tanasidagi saraton

Toshkent harbiy prokuraturasi va harbiy sudi hamkorligida harbiy qismlarning birida korrupsiyaga qarshi kurashish doirasida profilaktik tadbir o'tkazildi.

"Korrupsiya – jamiyat tanasidagi saraton" mavzusida tashkil etilgan ushbu muloqotda korrupsiya holatlariiga yo'l qo'ymaslik, bu illatga qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olish haqida tushuntirishlar berildi.

Ta'kidlanganidek, shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeiyidan o'z manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga zid ravishda foydalaniishi, shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish korrupsiya hisoblanadi.

Shunday alomatlarga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish esa korrupsiyaga oid huquqbazarlik bo'lib, bunday huquqbazarlik sodir etganlarga nisbatan qonunda nazarda tutilgan jazo muqarrarligi ta'minlanadi.

Jarayonda ishtirokchilar o'zlarini qiziqitrgan savollarga atroflicha javob oldi.

**Adliya podpolkovnigi
Alisher QURBONOV,
Toshkent harbiy prokurorining
yordamchisi**

Prokurorlik soati

Vatanparvarlik — ma'naviy qadriyat

Termiz harbiy prokuraturasi tomonidan Surxondaryo viloyati Sherobod tumanining olis chegaraoldi hududida joylashgan 57- va 69-umumta'lim maktablarida "Vatanparvarlik – ma'naviy qadriyat" mavzusida prokurorlik soati o'tkazildi.

Muloqotda vatanparvarlik, fidoyilik, sadoqat, kamtarlik va mehnat sevarlik tushunchalarining mohiyati yoshlarga yetkazildi.

Ta'kidlanganidek, vatanparvarlik – ona Vatanga muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilish va bu yo'lda kuch-g'ayratini salohiyatini

baxshida etish, kerak bo'lsa, hech ikkilanmay, o'z jonini ham fido qilishga tayyor turish demak.

Bu hissining uchun asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

Bu ona Vatanimiz, xalqimiz o'tmishi va buguni bilan

faxrlanish, taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashash, kelajagi uchun qayg'urishda namoyon bo'ldi.

Mashg'ulot qizg'in savol-javoblarga boy bo'ldi.

**Adliya mayori
Xurshid ESHONQULOV,
Termiz harbiy prokururaturasi
tergovchisi**

Xalqaro hamkorlik

Yaponiya delegatsiyasining tashrifi



Yaponianing "Shimizu", "Emura" va "Watasei" korporatsiyalari hamda Yaponiya – Osiyo yoshlar almashinuvi assotsiatsiyasi rahbarlaridan iborat delegatsiya O'zbekiston Respublikasi mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Toshkent shahri kengashi tasarrufidagi Chilonzor tumani o'quv sport-texnika klubida bo'ldi.



Uchrashuv mobaynida xorijlik mutaxassislar "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarida turli toifalarda avtomototransport haydovchilarini tayyorlash jarayoni, mavjud moddiytexnik baza, o'quv dasturlari va haydovchilik kasbini o'rgatishga qaratilgan innovatsion texnologiyalari bilan yaqindan tanishdi.

Shuningdek, mehmonlar tashkilotning poytaxtimizda joylashgan o'quv avtodromida bo'lib, u yerda yengil va yuk avtobillari haydovchiligini o'rganayotgan fuqarolarning amaliy mashg'ulotlariga bevosita guvoh bo'ldi.

Delegatsiya a'zolari "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirovga hozirda Yaponiyada asosan taksi, avtobus va trak haydovchilariga katta ehtiyoj sezilayotganini ta'kidladi.

Tadbir davomida kelgusida ikki tomonlama kelishuvga erishilsa, xorija vaqtincha ishslash istagida bo'lgan o'zbekistonlik fuqarolar "Vatanparvar" tashkiloti o'quv muassasalarining avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida o'qilib, yapon diyoriga yuborilishi masalalari muhokama qilindi.

Hisobot



Kasaba uyushmasi qo'mitasining yig'ilishi

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi kasaba uyushmasi qo'mitasining hisobot-saylov yig'ilishi o'tkazildi.

Yig'ilishda qo'mita raisi Sobirjon Yusubjanov tashkilot markaziy kengashi kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan 2020-2024-yillarda amalga oshirilgan ishlar to'grisida hisobot berdi. Jumladan, yig'ilganlarga xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlарini himoya qilish hamda xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirish borasida amalga

oshirilgan ishlar, tashkilotda o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy va sport tadbirlari to'grisida axborot berildi.

Yig'ilish davomida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi Sobirjon Yusubjanov bir ovozdan qayta saylandi. Shuningdek, qo'mita a'zolari va taftish komissiyasi saylanib, kelgusi 5 yillik vazifalar belgilab olindi.

Karting

Namanganlik sportchi o'qishga imtihonsiz qabul qilinadi



Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanida O'zbekiston Respublikasi mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan yoshlar o'rtaida sportning karting turi bo'yicha O'zbekiston championati o'tkazildi.



Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 60 dan ortiq sportchi "Mikro", "KF-OK junior", "Super mini", "KF-OK" va "KZ" sinflari bo'yicha karting sport mashinalarida o'zaro bellashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan musobaqa quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

"Mikro" sinfida:

1-o'rin: Kirill Shevsov (Toshkent shahri);
2-o'rin: Azizmurod Muhammadjonov (Namangan viloyati);
3-o'rin: Kirill Konyuxov (Toshkent shahri).

"KF-OK junior" sinfida:

1-o'rin: Amir Hamrayev (Toshkent shahri);
2-o'rin: Artyom Usheka (Toshkent viloyati);
3-o'rin: Arseniy Glova (Toshkent shahri).

"Super mini" sinfida:

1-o'rin: Matvey Mochalkin (Sirdaryo viloyati);
2-o'rin: Aleksandra Krilova (Toshkent shahri);
3-o'rin: Sabrina Kleyen (Namangan viloyati).

"KF-OK" sinfida:

1-o'rin: Salix Xayrullayev (Namangan viloyati);
2-o'rin: Ivan Barishev (Sirdaryo viloyati);
3-o'rin: Kamoliddin Najmiddinov (Toshkent shahri).

"KZ" sinfida:

1-o'rin: Ayder Haydarov (Toshkent viloyati);
2-o'rin: Sergey Bagdasarov (Sirdaryo viloyati);
3-o'rin: Farrux Muratov (Toshkent shahri).

Umumjamoa hisobida:

1-o'rin: Namangan viloyati;
2-o'rin: Sirdaryo viloyati;
3-o'rin: Toshkent shahri jamoalari.

Birinchi va yuqori o'rinnarni egallagan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining medal, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

E'tiborlisi, namanganlik sportchi Salix Xayrullayev alohida namuna ko'rsatib, tegishli oliy ta'lim muassasalariga test sinovlarsiz va qo'shimcha imtihonlarsiz qabul qilinish imkoniyatini qo'lga kiritdi.

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida



YOSHLARIMIZ

G'OLIBLAR SAFIDA

Ayni paytda samarqandlik yosh sportchilar "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon", "Triatlon", "Motosport", "Aviamodel", "Radiosport", "Parashyut" "Avtokross" va "Karting" sport seksiyalarida muntazam shug'ullanmoqda. Albatta, ularga tajribali sport murabbiylari biriktirilgan.

- Mavjud seksiyalarda olib borilayotgan mashg'ulotlardan tashqari, belgilangan reja asosida tashkil etilayotgan turli musobaqalar sportchi yoshlarimizning tajriba va mahoratlarini oshirishga xizmat qilmoqda, - deydi markaz direktori Dilshod Nosirov. - Sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha joriy yilga mo'ljallangan sport va ommaviy



Keyingi yillarda
mamlakatimizda sportni
rivojlanadirish, aholi
o‘rtasida sog‘lom
turmush tarzini keng
ommalashtirishga muhim
e’tibor qaratilmoqda.
Xususan, sportning
texnik va amaliy
turlariga yoshlarni
ko‘proq jalb etish
borasida ham joylarda
keng ko‘lamli ishlar
olib borilyapti.
Jumladan, O‘zbekiston
Respublikasi
mudofaasiga
ko‘maklashuvchi
“Vatanparvar”
tashkilotining
Samarqand viloyati
kengashi hamda viloyat
texnik va amaliy sport
turlari markazida ham
bu borada ibratli ishlar
yo‘lga qo‘yilgan.

jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasiga asosan, viloyat terma jamoasining tizim tashkilotlari bo'yicha o'tkazilayotgan mamlakat miqyosidagi musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtiroki ta'minlanib, yoshlarimiz g'oliblar safidan joy olmoqda.

Natijada ko'plab iqtidorli sportchilar yetishib chiqdi. Masalan, markazimizning yozgi biatlon ustalari Madina Sagatova, Durdona Shamsiyeva respublika terma jamoasi safida bir necha bor Osiyo championati hamda nufuzli xalqaro

qatoridan joy oldi. Shuningdek, yana bir sportchimiz Ilhom Obidjonov avtokrosss bo'yicha O'zbekiston championi bo'ldi. Raketamodel sporti bo'yicha Farhod Bakiyev qo'liga kiritgan natijalar salmoqliligi bilan ajralib turadi. Binobarin, u O'zbekiston terma jamoasi tarkibida xalqaro miqyosdagि musobaqalarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisining kubogi uchun tashkil etilayotgan

"Shunqorlar" harbiy-sport o'yinlarida ham samarqandlik sportchi-yoshlar sovrinli o'rnlarni qo'lga kiritib kelmoqda. O'z navbatida, yuqori ko'rsatkichlarga erishayotgan g'olib sportchilar munosib ravishda rag'batlantirilib borilmoqda. Tabiiyki, sportchilarga qaratilayotgan e'tibor besamar ketmayapti. Ularni yangi-yangi marralar sari yetaklamogda.

- Bu yil ham viloyatimiz ko'plab nufuzli musobaqalarga mezbonlik qiladi, - deya ta'kidladi markaz direktori o'rinosasi Faxriddin Mardiyev. - Masalan, viloyatimizda triatlon sport turi bo'yicha nufuzli musobaqa o'tkazilishi rejalashtirilgan. Belgilangan tadbirlar rejasiga muvofiq, bir necha bor havo miltig'idan o'q otish, avtokross bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.

Ayni paytda markazda nafaqat sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, balki yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash va ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham namunali tashkil etilgan. Shu kunlarda markazda "B", "BC", "BE", "CE" hamda "D" toifali haydovchilar tayvorlanmoqda.

Shuningdek, yoshlarni ona Vatanga sadoqatli farzandlar sifatida tarbiyalash borasida viloyat mudofaa ishlari, maktab va maktabgacha ta'lim boshqarmalari, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari, Yoshlar ishlari agentligi va keng jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda beliglangan reja asosida tadbirlar olib borilmoqda. Bunda yoshlar o'rtasida turli ko'rlik-tanlovlар va sport musobagalari tashkil etilmogda

Akbar ALLAMUBODOV



Askarlikning ilk onlari

VATAN HIMOYASI – MUQADDAS BURCH

Harbiy xizmat har bir er kishining muqaddas burchi bo'libgina qolmay, sharaflı vazifasi ham sanaladi. Shu bois azaldan askar bo'lib qaytgan yigitlarga jamiyatda, oilada, mahalla-ko'yda o'zgacha havas bilan qaralgan, ularga bo'lgan ishonch va hurmat doim yuqori bo'lgan.




Joriy yil muddatli harbiy xizmatni Nukus garnizonidagi harbiy qismlarda o'tash uchun chaqirilgan yurtimizning eng sara yoshlari dastlabki harbiy saboqlarni o'rganmoqda. Qat'iy rejalarshirtilgan kun tartibi, ichki tartib-intizom yigitlarning axloqiy-ruhiy holatini so'ndirmay, aksincha harbiycha hayotga tez va oson moslashishiga zamin yaratayti. Buning uchun harbiy qismda barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, askarlar yotoqxonalari, mashg'ulot va dam olish xonalari, kutubxona, oshxona hamda sport majmuasida o'g'lolar ilk harbiy saboqlarni o'rganib, har tomonlama chiniqmoqda.

Fugarolik hayotidan bu yerdag'i muhitga tez va oson moslashishi, mustahkam harbiy intizomga ko'nishi uchun yoshlarga tajribali, malakali ofitser va serjantlar biriktirilib, har bir chaqiriluvchi bilan yakka hamda jamoaviy tarzda tarbiyaviy ishlar olib borilmoqda.

Jangovar qurol-aslahalarning tuzilishi, ulardan foydalanish tartibi, texnika xavfsizligi talablariga rioya etish va boshqa har bir askar bilishi kerak bo'lgan bilimlar bosqichma-bosqich berilmoqda.



MUQADDAS BURCH



"Tushuntirish, ko'rsatish va mashq qilish" tamoyili asosida o'tilayotgan jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlari hech bir yigitni bee'tibor qoldirmay, aksincha ularning qiziqishini orttiriyapti. O'g'lolar kompyuterlashtirilgan panoramali trenajyorlardan keng foydalaniib, merganlik mahorati va quollardan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlamoqda.

Yigitlarning axloqiy-ruhiy holatini yaxshilash, ayniqsa xizmatga moslashishi

uchun ular bilan harbiy psixologlar tomonidan psixologik treninglar tashkil etilmoqda. Bu esa azamatlarning o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshirmoqda.

Askarlarning bo'sh vaqtini maroqli va mazmunli tashkil etish, madaniy hordiq olishlarini ta'minlash uchun vatansparvarlik ruhidagi milliy kino namoyishi, konsert dasturlari, uchrashuvlar hamda davra suhbatlari tashkillashtirilmoqda. Dam olish tadbirleri ham yigitlarning psixologiyasi, ularning axloqiy-ruhiy holatiga ijobjiy ta'sir o'tkazishi bilan ahamiyatlidir. Chaqiriluvchilar orasida san'atga, ijodga qiziqishi yuqori bo'lganlar orasidan harbiy qismidagi ijodiy guruh shakkantirilib, ularning faoliyati yo'liga qo'yilmoqda.

Elektron va badiiylar fonda boy kutubxona muddatli harbiy xizmatchilarni ma'rifat yo'lliga chorlab, ularga kitobxonlik madaniyatini o'rgatmoqda.

Bir so'z bilan aytganda milliy armiyamiz saflariga endigina kirib kelgan yoshlarning harbiy hayotga oson ko'nishi, xizmat mashaqqtalarini yengib o'tishi, eng asosiysi, Vatan himoyachisi bo'lib yetishishi uchun Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tomonidan barcha amaliy chora-tadbirlar ko'rilgan.

**Kichik serjant
Abdullahjon UMARALIYEV
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati**

Diqqat,
tanlov!

“JADIDLARNING MA’NAVIY QAHRAMONLIGI”



Jadidchilik Turkiston milliy-ozodlik harakatining mafkurasi, o’lka xalqlarining mustaqillik va ma’rifatparvarlik g’oyasi sifatida shakllanib, jadidlar millatni zamonaviy taraqqiyot yo’liga olib chiqish, milliy davlat buniyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurishni maqsad qilgan edi. Bugungi kunda O’zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jadidlar, xususan milliy-ozodlik harakatining buyuk namoyandasini Mahmudxo’ja Behbudiyning g’oyalari asosida milliy o’zlikni anglash, Vatanimizning qadimiylari va boy tarixini o’rganish orqali fuqarolar, qolaversa harbiy xizmatchilarda milliy ruhni, vatanparvarlik tuyg’usini kuchaytirishni davr talab qilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi “Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamaot arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo’ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to‘g’risida”gi qarori ijrosi asosida O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti “Vatanparvar” birlashgan tahririyyati olimlar, yozuvchi va professional ijodkorlar, jurnalistlar, harbiy xizmatchilar, respublika oliy va oliy harbiy ta’lim muassasalarini mutaxassislar, tadqiqotchilar hamda nashrlarimiz o’quvchilari o’rtasida ma’rifatparvar bobolarimizning hurriyatga erishish yo’lidagi ibratli hayotini targ’ib qilish, g’oyalarni harbiy xizmatchilar, ularning oila a’zolari, yoshlar ongiga singdirish, adabiy-estetik tafakkurini shakllantirish, ularda milliy ruh, g’urur va iftixon tuyg’ularini kuchaytirish, yangi marralar sari undash maqsadida “Jadidlarning ma’naviy qahramonligi” deb nomlangan tanlovni e’lon qiladi.

TANLOV SHARTLARI

Taqdim etilgan ijodiy ishlar – maqola, ocherk, esse va boshqa badiiy ijod namunalari 2025-yilning 10-apreldidan 2025-yilning 10-avgustigacha (Word shaklida, 14 shriftda, kirill yoki lotin alifbosida) “Vatanparvar” birlashgan tahririyyatiga yuborilishi lozim.

MANZIL:

100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag’bon ko’chasi, 382-uy; elektron manzil: @vatanparvargazetasi_bot yoki (90) 968-62-08 telegram orqali.

Quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- muallif pasporti (shaxsini tasdiqlovchi hujjat) nusxasi;
- muallifning manzili va bog’lanish telefonlari;
- muallifning xizmat (ish) joyi.

Murojaat uchun telefonlar:

(55) 511-25-91; (55) 511-25-82.

Eng sara ijodiy ishlar “Vatanparvar” gazetasi sahifalarida “Jadidlarning ma’naviy qahramonligi” tanlovi rukni ostida chop etiladi.

G’OLIBLARNI MUKOFOTLASH

Tanlov g’oliblari quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:

- 1-o’rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (yigirma) barobari, diplom;
- 2-o’rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (o’n besh) barobari, diplom;
- 3-o’rin (2 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o’n) barobari, diplom.

Rag’batlantiruvchi mukofot:

- 3 ta – bazaviy hisoblash miqdorining 8 (sakkiz) barobari, diplom.
- Natijalar “Vatanparvar” gazetasi, mudofaa.uz sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinadi.

G’olib va sovrindorlarga mukofotlar 2025-yilning 30-avgustiga qadar tantanali ravishda topshiriladi.



“Vatanparvar” birlashgan tahririyyati

@Vatanparvargazetasi_bot

“Vatanparvar” birlashgan tahririyyati bilan bog’lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O’ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-major Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otobek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O’zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro’yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo’lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Shohrux Saidov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahih: Zebo Sarlieva

Buyurtma: V-5933
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 376 nusxa
Bosishga topshirish vaqt: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazetanining poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O’zbekiston” NMIU mas’ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan.

Nashri ko’satkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O’zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy ko’chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Sag’bon ko’chasi, 382-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz



mudofaaavazirligi



mudofaaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya